




# DO'STIM *Mening* KITOBIM



KICHIK MAKTAB YOSHI DAGI BOLALAR UCHUN  
**HIKOYALAR**

UO'K: 821.512.133-93


KBK: 83.8(50')

X 98

**Tuzuvchi:  
Sunnat XO'JAAHMEDOV**

Ushbu kitobda qalamga olingan har bir katta-kichik asar yosh kitobxonni nimagadir da'vat etadi, o'rgatadi. Asarni o'qigan har bir o'quvchi davrimiz, mustaqil elimizga mos halol, o'qimishli bo'lib kamol topishida o'ziga xos maktab rolini bajaradi.

Kitob ota-onalar, boshlang'ich sinf o'qituvchi hamda o'quvchilariga mo'ljallangan.



ISBN 978-9943-07-757-7

© S. Xo'jaahmedov

© „Ensilopediya“ nashriyoti, 2022

## SO'ZBOSHI

Bolalar adabiyoti o'ziga xos xususiyatlari bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. ZOTAN, bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri, tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Shu orqali kichkin-toylarni olg'a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur anglash va sevishga yordam beradi.

Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, yorqin obrazlarga boy, yuksak g'oyalarga, ulkan ishlarga ilhomlantiradigan bo'lishi lozim. Eng muhim, mavzular tushunarli, sodda tilda ifodalanishi talab etiladi.

ZERO, bolalar adabiyoti tarbiya vositasi hisoblanib, yoshlarni imon-e'tiqodli va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda qudratli quroldir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi.

Bunday badiiy asarlar kitobxonning ong, fikridan tashqari, nutqiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, so'z



boyligini oshiradi. Bolalar o'zлari tinglagan yoki o'qigan asarlari yordamida asta-sekin atrof-muhit bilan tanishadilar, ona yurtga mehr-oqibatli bo'lishni, tabiatni asrashni, mehnatni sevishni o'rganadilar.

Ko'rindiki, bolalarga qo'llariga tushgan har qanday kitobni o'qishlariga yo'l qo'ymay, o'tmish avlod-ajdodlarimiz, bugungi ozod va obod yurtimiz, hayotda ibrat bo'ladigan insonlar to'g'risida yaratilgan, tabiatga, Vatanga, o'qishga, onaga bo'lgan muhabbat g'oyasi singdirilgan badiiy asarlarni ko'proq o'qish tavsiya qilinadi.

Shu maqsadda ushbu kitobga o'quvchi yoshlarimizning pedagogik-psixologik davr ruhiga mos keladigan shingil hikoyalarni jamlashga harakat qildik.



## **UQUV QUT BERADI, BILIM – SHARAF-SHON**

Uquv-idrok, bilim haqida alohida to'xtash joiz. Uquv-idrok qorong'i tundagi mash'alga o'xshaydi. Bilim esa o'sha mash'aldan taralayotgan nurga qiyos. U kishini yoritadi, unga ro'shnolik beradi.

Uquv qut beradi, bilim – sharaf-shon.  
Shu ikkov tufayli ulug'dir inson.

Bunga ishonmasang, shubha qilsang, ko'zingni katta och! O'zingni zakovat nuri bilan yoritib ko'r. Menga donishmandlarning bitta hikmatli so'zi yaxshi ma'lum: bilimdon o'z bilimi tufayli balo-ofatlardan omon qoladi.

Telba, nodon kishi o'lsa, ajablanmaslik kerak: asli-da ularning tirik chog'lari ham o'limdan farq qilmaydi.

Hurmat kishining uquv-idrokidan keladi. Uquv-idroksiz kishi bir hovuch kepak bilan teng. Bularning barini kuzat, qara, bil! Shunda uquv-idrokli, dono kishilarning tub – asli senga ma'lum bo'ladi.



Uquv-idrok kishini pokiza qiladi. Bilim esa yuksal-tiradi. Inson zaminda paydo bo'lgan ekan, boshqa mavjudotlardan o'z bilimi bilan farqlanadi.

Dunyodagi turli-tuman san'at, son-sanoqsiz hunarlar uquv va bilimga tayangani uchun maqtaladi, til-lardan tillarga ko'chib yuradi. Uquv-idrokdan ozgina ulush olgan kishi talay naf ko'radi. Zehn solib qara va bilginki, quyidagi to'rt narsaning ozini ham aslo oz hisoblab bo'lmaydi.

Bu to'rtning biri o't, birovi – yog'i,  
Uchinchi – kasallik – umr tuprog'i.

Yana bu bilimdir ularning biri,  
Boshingda baland tut, shu ular siri.  
Bilim kimyo misol: u turadi jam,  
Zakovat saroyi kabi o'zi ham.

Bilim ipor bilan juda o'xshash. Ularning har ikkisini ham yashirmoq behuda. Iporni yashirsang, hidi bildirib qo'yadi. Bilimni yashirsang, tiling fosh etadi. Bilim aslida bitmas-tuganmas boylikka o'xshash. Ammo uning boshqa boyliklardan tub farqi bor:



Bilim – boylik axir, zavoldan yiroq,  
Uni ola bilmas qaroqchi biroq.

Bilim va zakovat kishiga qo'yilgan o'ziga xos kishandir. Kishanlangan ot, odatda, yovuz va yaramas narsalardan uzoq bo'ladi. Shuningdek, suyukli zo'r otlar ham ko'pincha tushovlangan bo'ladi. Suyukli otning tushovlanishiga sabab – uning ehtiyyotlanishi.

Kishanlangan qocholmas, kerakcha yurar,  
Tushoqlik ketolmas, turguncha turar.

Zakovat o'zaro ont ichishib do'stlashgan kishilarga o'xshasa, bilim yaqin qarindoshlarga o'xshaydi. Buni dilga tugib olish lozim. Do'st-og'aynilar, qarindoshurug'lar davrasidagi kishi o'zini dadil sezadi. Bilimsizlar-chi?

Bilimsizga dushman bilim, qilig'i,  
Yetar ikkovining shu qilg'iligi.

Shunga o'xshar endi bu turkcha maqol,  
O'qigin uni sen, dil-u jonga ol:



Uquvli kishiga zakovati esh,  
Bilimsiz kishiga mukofot – so'kish.

Bilimliga bilim tugal to'n, osh-ey,  
Bilimsiz qilig'i yovuz yo'l dosh-ey!

Ey zakovatli inson! Qahr-u g'azabdan yiroq tur.  
Ezgu yo'lin – bilim yo'lini tanlagin. Axir qahr-u g'azab  
ishga tushadigan bo'lsa, barcha tiriklig-u kechayotgan  
hayoting bekor.

O'kinchli bo'ladi g'azabning ishi,  
Ishida adashar g'azabkor kishi.

Yigitga og'irlik yarashadi. Qilik'i go'zallik unga  
chiroy. Uning fe'l-atvori xuddi Kun va Oydek bosh-  
qalarni o'ziga jalb etsin.

Uquvli bo'lsa, to farqlasa kishin,  
Bilimli bo'lsa, to soz etsa ishin.

Qobil-noqobilni ko'rolsa tugal,  
Kerak-keraksizni bilsa mukammal.



Yigit degan har ishning uddasidan chiqsa. Butun ishda o'zini qo'lga ola bilganlar barcha ishlarni to'la va tugal ado etishadi. Bilimlilarning ishni hal etish usullari shu. Bunday odam tilagiga yetadi, maqsadiga oson erishadi.

Yovuzdir kishiga bu qahr-u itob,  
Bulardan shirin jon chekadi azob.

Donishmandlar kuzatishi shunday hikmatni yuzaga keltirgan: odam qahrlansa, bilimsiz bo'ladi, jahl kelsa, aql ketadi:

Bu bir qancha narsa kishiga balo,  
Buni bilib olsang, bo'ladi a'lo.

Bularning boshida tilning yolg'oni,  
Yana biri – aldov, bilib ol oni.

Yana bir boshqasi may ichsa suyib,  
Bo'lar ish bo'ladi, dil qolar kuyib.

Yana biri ortiq qiliq, harakat,  
Bu ortiq qiliqdan ketar barakat.



Yana biri yaroqsiz yomon fe'l butun,  
U qo'zg'ar kishilar uyida tutun.

Bular gar biriksa bari o'zaro,  
Muqaddas saodat ketar avvalo.

Falak boqmas unga – boshi aylanar,  
Boshida tegirmon toshi aylanar.

Kishi ezgulik qilishi kerak. Ezguning har bir ishi chiroqli, har bir qadami go'zal. Ezgu aslo qarimaydi. Yomon yuzga kirsa ham ezgu bo'lolmaydi. Yoshi kichik yomon o'kinch bilan qaraydi. Uzun yoshli ezgu esa sevinchda yuradi. Ezgu har kuni yangidan-yangi tilak-maqsadlarga erishaveradi. Yomonlarnng esa kundan-kunga mung va alami ortadi.



## BOLARI VA PASHSHA

Bir pashsha qir tarafdan uchub kelmoqda o'lan arini ko'rub:

- Do'stim, qaydan kelursan? – dedi. Ari:
- Qirdan kelurman. Biroz bol yig'dim. Uy yasamoq uchun mum ham hozirlab keldim, – dedi. Pashsha:
- Oh, birodar! Bir boshing uchun muncha harakat qilursan? Nima bo'lurki, san ham man kabi rohatda yashasang? Chunki mening yashamoqimda hech bir mashaqqat yo'q. Insonlar tarafindin hozirlangan dasturxonlardan har xil taomlarni yeb-ichub umr o'tkarurman. Ba'zi vaqtarda sani yasagan bolingdan ham to'yganimcha yerman. Mana! Yashamoq mana! Umr kechurmoq uchun olamda mundan yaxshi turmush bo'lurmu? Na manda bol hozirlamak mashaqqati va na uya solmoq kulfati bor, – dedi. Ari bu so'zlarga javoban dediki:

– Oh, do'stim! Bu sani turmushing o'z boshingdan beri kelmasun. Mashaqqatsiz taomda lazzat bo'lurmu? Insonlar sani sufradan quvarlar, urarlar, o'ldirurlar. San olamda o'g'rilar kabi umr o'tkarursan. Oxirda bir





o'rgimchak luqmasi bo'lmoqdan boshqa bir narsaga yaramassan. Ammo maning tayyorlagan mumim hamma ibodatxonalarini yorutar. Bolim dunyoning hamma yerinda maqbuldir. Insonlarning og'izlarini totli qilur. Shu sababli insonlar o'zlari mani tarbiya qilurlar va har yerda mani maqtarlar. Qo'y, birodar, mani ishim ko'b, san ila behuda so'zlarni so'zlashib tururga vaqtim yo'q, – deb uchib ketdi.

**Hissa:**

Mehnat oxiri rohat, yalqovlik oxiri xorlikdur.





## SAXIYLIK

Bir kishining Said ismli o'g'li bor edi. Otasi har kun mактабда таом оlib yemak uchun o'n tiyin pul berur edi. Bir kun maktabga ketub borganda, bir faqir kishi yo'lququb:

– O'g'lim, ikki kundan beri ochman. Taom olib yeysam ustimdagi yirtiq chakmondan boshqa hech narsam yo'q. Biroz aqchang bo'lsa, bersang, savob topur eding, – dedi.

Said faqirning so'ziga toqatsiz bo'lib, holig'a rahmi kelib, otasi bergen o'n tiyin pulni faqirga berdi. Faqir bu yosh Saidning qilgan shafqat-u marhamatiga ofarin qilib, yig'lay-yig'lay duolar qilib ketdi. Said ul kun o'zi och qolsa ham, ochlig'ini hech kimga bildirmay, sabr-u qanoat ila o'tkardi. Maktabdan ozod bo'lib, otasi ham „saxiy Saidim“, deb xursand bo'lub, duo qildi ham bundan so'ng Saidga har kun yigirma tiyindan berurga va'da qildi. Saodatlik Said otasi bergen yigirma tiyinning o'n tiyinini yeb, beshini faqirlarga berub, beshini yig'ib, tezda boy bo'lub ketdi.



## OCHKO'ZLIK

Bir bola ko'chada yig'lab o'lturib edi. O'tib-ketib turgon kishilardan biri: „O'g'lim, senga nima bo'ldi? Na uchun muncha yig'larsan?“ deb so'radi. Bola: „Bir tiyin aqcham bor edi, yo'qotib qo'ydim. Shuning uchun yig'larman“, dedi U kishining bolaga rahmi kelib, „Mana, o'g'lim, aqchang yo'qolgan bo'lsa, men sanga boshqasini berurman“, deb cho'ntagidan bir tiyin aqcha chiqorib berdi. Bola aqchani olib yana avvalgidan ortiq yig'lamoqqa boshladi. UI kishi: „Dag'i nimaga yig'larsan?“ desa bola: „Oh, otajon! Agar o'z aqcham yo'qolmagan bo'lsa edi, hozir aqcham ikki tiyin bo'lur edi“, dedi.

Ko'zing och bo'lmasun, o'g'lim, ko'zing och,  
Qanoatsiz kishini uxlatib qoch.



## HULKAR

Hulkar degan jajji qizning o'zi juda yaxshi-ku, lekin ko'p yig'lagani yomon-da.

Dadasi unga qo'g'irchoq olib keldi. Keyin so'radi:

– Endi yig'lamaysanmi?

– Endi yig'lamayman, – deb javob berdi Hulkar.

Qo'g'irchoq Hulkarning xuddi o'zi edi: ularning bo'yłari ham bab-barobar, qop-qora, bilaklari semiz. Lekin qo'g'irchoq hech yig'lamas edi. U har doim kulib turar, karavotga yotqizib qo'ysa, ko'zlarini yumib uxlardi. Qo'llaridan tortib turg'izsa, ko'zlarini ochib kular edi.

Ertasiga Hulkar qo'g'irchoqni karavotdan itarib yubordi. Keyin „konfet“ deb yig'lay boshladi.

Onasi Hulkarga konfet berdi. Konfetni yeb bo'l-ganidan keyin yana „konfet“ degan edi, onasi teshik kulcha berdi. Hulkar kulchani hech olmadi. U hammaning jahlini chiqarib yig'layverdi. Hulkarning o'rtoqlari uy-uylariga ketib qolishdi.

Ertasiga Hulkarning o'rtoqlari yana kelishdi. Uni ko'tarib yuradigan katta qizlar ham kelishdi. Shu



Abduila Qodiriy nomidagi  
viloyat AKM  
INV № 2023/14-22



paytda Hulkar „konfet“ deb yana yig'lay boshladı. Tomog'i og'risa ham konfet yeyaverdi.

Qo'shni qizlar Hulkarga qaramay, uning qo'g'ir-chog'ini ko'tarishib o'ynatisha boshladı.

Shunday qilib, qo'shni qizlar har kuni uning qo'g'ir-chog'ini o'ynatishaverdi. Axir Hulkar uni o'ynatmadı-da.

U qizlarga qarab:

- Meni ko'taringlar, – degan edi, qizlar:
- Sen yig'loqisan, biz yig'loqi qizni yomon ko'ramiz, qo'g'irchoq hech yig'lamaydi, – deyishibdi.

Hulkar:

- Men ham endi hech yig'lamayman, – dedi.
- Qo'g'irchoq hadeb „konfet“ deb yig'lavermaydi, – dedi katta qizlar.
- Men ham endi hech „konfet“ deb yig'lamayman, – dedi Hulkar.
- Unday bo'lsa, kel, seni ko'taramiz, – deyishibdi katta qizlar.

Ular Hulkarni ko'tarib, o'ynatishdi. Unga „Archa“ degan ashulani o'rgatishdi. Hulkar kechgacha kulib, o'ynab yurdi. Kechqurun uni kichkina karavotga yot-qizishgan edi, ko'zlarini yumib uqlab qoldi.



## DILORO

To'lqin bilmasdan Diloroning oyog'ini bosib oldi. U „Kechir, bilmay qoldim“, degan so'zni aytmoqchi bo'lib turgan edi, Diloro To'lqinning yuzini timdalab oldi. To'lqin yuzini ushlab ancha vaqtgacha yig'ladi.

Ertasiga yana shunday bo'ldi. Feruza degan qizning koptogi Diloroga tegib ketdi. Achchig'i chiqqan Diloro Feruzaning yuzini ham timdalab oldi.

– Kechir, – dedi Feruza va yuzlarini ushladi.

Indiniga Diloro bilmasdan To'lqinning oyog'ini bosib oldi, Diloro „Hozir To'lqin yuzlarimni timdalab oladi“, – deb indamay, qo'rqib turaverdi.

To'lqin Diloroga yaqin kelib:

– Kechir, deb aytmaysanmi, Diloro? – dedi.

Diloro sekingina:

– Kechir, – dedi. To'lqin:

– Zarari yo'q. Chunki sen bilmasdan bosib oling, – dedi-da, yana yugurib o'ynab ketdi.

Kechqurun uyda dadasi, opasi, akalari oldida Diloro gapira boshladi:

– To'lqinning oyog'ini bosib olgan edim, yuzimni timdalab olmadi. Feruza ham yuzimni timdalab olmadi.

– To'lqin yaxshi bola, – dedi Diloroning akasi. – yaxshi bolalar hech urishmaydi!

Diloro ham yomon qiz emas. Maktabimizga kelsangiz uni ko'rasiz, u endi hech kim bilan urishmaydi, kiyimlarini kir qilmaydi. Diloro yaxshi qiz.





## SHOSHQALOQ

Shavkat loydan yasalgan uychasiga mushugini kirgizishga rosa urindi. Mushukcha bo'lsa: „Men sig'-mayman uychangga“, degandek kirgisi kelmay, oyoq tirab turib oldi. Birozdan keyin u Shavkatning qo'lidan qochdi. Oyoqlarini cho'zib bir kerishdi-da, to'g'ri borib eshik tagidagi tuynukdan Komila xolaning hovlisi tomonga o'tib yo'qoldi. O'sha teshikdan Shavkat ham kirdi.

– Ha, Shavkatvoy? – so'radi hovli supurayotgan Komila xola.

Shavkat shoshib qoldi:

- Menmi... men... o'zim shunday.
- Nega tiling tutildi? Tag'in kecha mening osh-qovoqlarimni yumalatib ketgan sen bo'lmasam...
- Yo'q, men emas...
- Nega bo'lmasam eshikdan kirmayapsan? Taqil-latganingda ochardim-ku!
- Men... – Shavkat nima deyishni bilmay turganida, birdan ko'zi o'choqboshidagi to'nkaga tushdi, – men sizga o'tin yorib bergani chiqdim, – dedi jiddiy.



– A? Qani bo'limasa yorib bera qolgin. O'tinim ham tugay deb qolgandi, – Komila xola miyig'ida kulib gapirdi. Shavkat Komila xolaning bunday deyishini kutmagan edi. Gapirishga gapirganidan keyin ishni ham qilishi kerak-da. Mayli, nima bo'lsa, bo'lar. Shavkat boyagi joyga bordi. To'nkaning yonginasida katta bolta yotibdi. O'zi ham yomg'irda qolgan ekanmi, zanglab ketgan ekan. Shavkat boltani ko'taraman deb urinib, terlab ketdi. Biroq u to'nka tagida qolganidan hech qimirlatib bo'lmadi.

Bu orada Shavkat nima qilmoqchi bo'lganini ham unutdi. U yon-veriga qaradi-da, to'nkaning ustiga o'tirib oldi. Mazza ekan! So'ng oyoqlarini o'ynatib ashula ayta boshladи:

- Nay, nay, na-nay...
- Ha, yorib bo'ldingmi? – deb so'radi Komila xola.

Shavkat nima deyishini bilmay qoldi. Aytmoqchi, u o'tin yorib bermoqchi edi-da. Nega ham va'da qildi-a? U sir boy bermaslikka harakat qilib:

- O'tinni-chi keyin yorib beraman, – dedi. Biroq negadir o'zi qizarib ketdi.

Ertasiga nima bo'ldi-yu, Shavkatning mushugi yana kechagi teshikdan Komila xolaning hovlisiga kirib



ketdi, Shavkat ham uni tutaman, deb o'sha yoqqa chiqdi.

– Ha, Shavkat, tag'in nimaga kelding? – so'radi xola.

Shavkat kecha rosa ta'zirini yegani esiga tushdi.

– Mushugimni ushlagani kirdim, – dedi rostiga ko'chib.

– Shunday degin, juda yaxshi... qani bu yoqqa kel-chi, ana endi katta yigit bo'libsan, mana shunaqa to'g'ri gapirishga odatlan. Ol, mana buni yegin! – deb Komila xola unga qurut berdi.

Shu-shu bo'ldi-yu, Shavkat sira yolg'on gapir-maydigan bo'ldi.

## QIZG‘ANCHIQ

Shirin-shakar mevalarga boy katta Tagob qish-log'ida Shavkatjon degan bir bola yashardi. U o'zi esli-hushli, tirishqoqqina edi-yu, ammo qizg'anчиq edi. O'qishlari ham chakki emas, hatto ikki marta „5“ baho ham oldi. Xullas, hammasi joyida edi-yu, lekin qizg'anчиq-da!

O'rtoqlaridan birontasi:

– Shavkatjon, daftaringdan bitta berib tur, – deb qolsa, Shavkatjon darrov qovog'ini soladi-da:



- Bor-yo'g'i 20 ta daftarim qoldi, senga bersam, o'zim nima qilaman! – deb darrov teskari o'girilib oladi. Ertasiga orqa partada o'tirgan do'sti:
  - Shavkat, bitta narsa so'rasam maylimi? – deb qoladi.
  - Nima ekan, avval ayt-chi... – deydi Shavkatjon qo'rqib ketib.
  - Ruchkam sinib qoldi, – deydi haligi do'sti.
  - Yo'q, yo'q! – deb do'stining gapini bo'ladi Shavkatjon. – O'zi beshta ruchkam bor. Senga bersam ado bo'lib qoladi.

Zarur bo'lganda undan hech narsa olib bo'lmaydi. Hatto uyidan olib kelgan non-u mevalarni ham yashirib yeydi. Bir kuni bitta tuxum olib kelgan ekan, birovga ko'rsatmasdan yeb ola qolay deb, butunicha yutib yuborgan, tiqilib qolib, ko'zlari olayib ketgan.

Shavkatjonning katta qora papkasi bor. Qo'liga nima tushsa, o'sha papkasiga joylab oladi-yu, qaytib ko'rsatmaydi. Sheriklari papkasini ochib, ichini bir ko'rsak bo'lardi, deb ko'p urinishgan, lekin baribir ko'risha olmagan. Men bir amallab, o'ziga sezdirmay papkasini ochib ko'rganman. Voy-bo', siyohi tugagan ruchkalar deysizmi, choynakning qopqog'i, tasmaning





taqasi, bog'cha bolalar o'ynaydigan qo'g'irchoqlar deysizmi, hamma-hammasi bor ekan-a!

Kunlardan bir kun Shavkatjonning ana shu antiqa papkasi suvga oqib ketdi, ha, oqib ketdi. Shavkatjonlar suvning narigi yuzida yashashardi. Soydan o'tish uchun yog'och qo'yilgan. Qo'llarini yozib dorbozlardek o'ynab o'taman, degan bir xayolga bordi-yu, papkasini beixtiyor tushirib yubordi... Yig'laganicha sinfga kirib bordi.

- Nega yig'laysan?! – so'radi muallim.
- Papkam oqib ketdi, – deb battarroq xo'ngrab yubordi Shavkatjon.
- Kap-katta yigit bitta papkaga ham yig'larkanmi? – ko'nglini ko'tardi muallim.
- Axir unda daftarlarim bor edi, endi nimaga yozaman?

Muallim Shavkatjoni partasiga o'tqizdi-da, sinfga murojaat qildi:

- Qani bolalar, kimda ortiqcha daftar bor?
- O'ttiz ikki o'quvchi baravar qo'l ko'tardi.
- Shavkatjon yana yig'ladi.
- Endi nega yig'laysan? – so'radi muallim.
- Axir... axir ruchkalarim ham oqib ketdi-da!



– Qani, bolalar, – so'radi muallim, – kimda ortiqcha ruchka bor?

Yana o'ttiz ikki qo'l baravar ko'tarildi. Shundan so'ng desangiz, Shavkatjonning partasiga daftar-u ruchkadan tortib, rangli qalamgacha kelib tushaverdi...

Shavkatjon yig'lashdan to'xtab, kafti bilan ko'z yoshlarini artib, parta ustidagi narsalarga tikilib qoldi. Bir nafas jim turdi-da, ho'ngrab yig'lab yubordi.

– Iya, tag'in nega yig'layapsan? – hayron bo'ldi muallim...

– Endi... endi uyalganimdan yig'layapman, – Shavkatjon qo'llari bilan yuzini berkitib oldi, – uyalib ketyapman, – dedi u.





## CHAVGON

O'yin qizib turgan paytda Tesha chavgonini sindirib qo'ydi. Komandasi yutqazib turganda bir alami ikki bo'ldi... bosh qashlab turib, muyulishdagi ska-meykada o'tirgan cholga ko'zi tushdi. Boya o'sha yerdan o'tayotganda ham cholning qo'lidagi boshi qayrilgan hassasiga havas bilan qarab o'tgan edi. Yugurdi...

– Jon buva, hassangizni berib turing, do'ppim daraxtga ilinib qoldi, keling... – shoshib so'radi Tesha.

Chol koptokni ushlashga shaylangan darvozabondek qiyofada turgan Teshaga tikilib turib miyig'ida kulkarkan, bosh chayqab dedi:

– Salom qani, o'g'lim, salomni yedingmi? Avval salom bergen, keyin so'ragin-da.

– Xo'p, assalomu alaykum, buva, endi bera qoling...

– Vaalaykum assalom. Axir do'pping, men bu yoqdaman, deb cho'ntagingdan mo'ralab turibdi-ku.

– Do'ppimas, buva, haligi... – Tesha sholg'omday qizarib ketdi, – axir, axir oyimlar sizni yaxshi chol, deydilar-ku!



– Ha, oying desa debdi, ammo sen yaxshigina mug'ambir ekansan. Ma, ol, biroq yolg'on so'zlama! – dedi bobo.

Tesha ma'qulladi shekilli, qo'llarini ko'ksiga qo'yib, cholning tabarruk hassasini olganicha yugurib ketdi.





## O'KINCH

Qizaloq dadasini kutardi. She'r aytib bermoqchi. Bolalar, ustozlari oldida dadajonisini tabriklamoqchi. Ko'rib qo'ysin bolalar uning dadasini... Birdan qo'rqb ketdi. Yodlagan she'rini unutib qo'ysa-ya. Lablari pichirlay boshladи. Qayta-qayta takrorladi.

Ko'zi yo'lida-yu, labi pichirlardi. Ana, ustozlari bolalarni o'tirg'iza boshladи. Ashula, she'r aytuvchilarni, raqsga tushuvchilarni bo'lak tomonga qo'yishdi.

Qizaloqning ko'zi dadasingning yo'lida. Vaqt esa imillab o'tardi. U ota-onalar uchun tayyorlangan tomonga qaradi. Uchta qariya o'zaro gurunglashib o'tirardi. Nevaralarning ortidan kelgandir. Hali vaqt bor. U yana pichirlay boshladи. Lekin eshikdan ko'z uzmasdi. Uzun, qisqa bo'lib otalar kelib o'tira boshlashdi. Dadasi esa ko'rinasdi. „Dadam albatta keladi“, – deb ko'nglidan o'tkazdi qizaloq.

Ana Zulfiyaning, Dilraboning, Zokirning dadasi keldi. O'tirganlar bilan kulib salomlashdi. Qizaloq dadasing kirib kelishini ko'z oldiga keltirdi: oq ko'ylakda,



qora galstuk taqib, jigarrang kastum-shimda biroz jilmayib kirib keladi. O'tirganlar bilan salomlashadi. Bolalar orasidan uni izlaydi. Qizaloqqa ko'zi tushadiyu sal jilmayib, „So'zimning ustidan chiqdim, keldim, qizim“, degandek imlab qo'yadi.

Qizaloq birdan qo'rqib ketdi. Dadam kech kelib stul yetishmay qolsa-ya! Bir stulni dadasi uchun olib qo'yish kerak. Stul olib qo'ymoqchi bo'lib, otalar o'tirgan tomon chopdi.

– Dili!

Bu ustozining ovozi edi. Yarim yo'lda ko'zlari mo'ltirab ovoz chiqqan tomon qaradi. Ustozi unga qarab turardi.

- Dadamga... Stul...
- Qanaqa stul?!
- Dadam kelsa, stul yetmay qoladi, – tushuntirmoqchi bo'ldi qizaloq.
- Avval boshqalarning dadasiga o'xshab dadang kelsin, stul topiladi, qizim. Topilmasa biror joyda tik tursa ham hech narsa qilmaydi. Sen yaxshi qizsanku, tartibni buzma. Mana, hozir konsertni boshlaymiz, – deb uni yetaklab joyiga olib keldi.

Konserdt boshlandi. Uning qulog'iga hech narsa kirmasdi. Ikki ko'zi eshikda. She'rni takrorlashni

ham unutdi. Angrayib turarkan, yonida turgan bola qo'lidan tortdi.

– Chiq! She'ringni ayt.

Birdan qizaloqning xo'rligi kelib ketdi. O'jarligi tutdi.

– Chiqmayman!

Kapalagi uchib ketgan ustoz kelib:

– Chiq deyapman! – dedi yig'lamoqdan beri bo'lib.

Qizaloq yerga qarab turaverdi va birdan xo'ngrab yig'lab yubordi.

– Endi nima qilsam ekan-a! – ustoz xunob bo'lib nari ketdi. Navbatdagi nomer e'lon qilindi.

\* \* \*

Bu vaqtida dadasi javob olmoqchi bo'lib, boshliq huzuriga kirgandi.

– Ey keling, keling, o'zim chaqirmoqchi bo'lib turgandim. Yaxshi keldingiz. Ba'zi ma'lumotlar kerak bo'lib qolibdi. Shuni zudlik bilan tayyorlab bersangiz!

– Xo'p, lekin... Bir soatga javob bersangiz...

– Nega?

– Shu... qizimning... bugun konsertiga boraman, deb va'da bergandim.



– Qanaqa konsert?!

Boshliqning jahldan ko'zlari chaqchayib ketdi. – Bir soat-a, yuqoridan so'rashsa; „Falonchiyev konsertga ketib qoldi, kelsa tayyorlab beradi“, deymanmi?! Qo'ying munaqa gaplarni. Hoziroq tayyorlab kriting!

Boshliq gap tamom degandek, shart o'rnidan turib ketdi. Ota lom-lim demay iziga qaytdi.



## OQ TUGMA

Sobira ishdan qaytgan bobosining ko'ylagiga qaradi-yu, yugurbanicha ichkari kirib ketdi. Igna olib ip o'tkazdi va tashqariga chiqib, nima qilarini bilmay turib qoldi. Chunki u bobosiga:

– Ko'ylagingizni yechib bering, – deya olmadi  
Ko'ylagini o'zgartirishini poylab turdi...

Bobosi ertalab ko'ylagini kiydi-yu, hayron bo'ldi.

– Tugmani kim qadadi? – so'radi u.

Avvaliga hech kim indamadi. Keyin Sobira „Men“, – dedi sekingina. Bobosi jilmayib qo'ydi.

– Mayli, qizim. Keyingi safar... Hozir oying bosh qatdan qadab beradi.

Sobira avvaliga tushuna olmadi. Keyin qarasa..  
Oq tugma qora ip bilan qadalgan edi.

Bolalar, Sobira qanday holatga tushganini aytib berla olasizmi?



## QUYON

Xizmatning to‘rtinchi oyini o‘tayotgan edik. Bu paytda biz qismda emas, mashq maydoniga chiqib ketgandik. Atrofimiz o‘rmon. Qiladigan asosiy ishimiz – yog‘och tayyorlash. Kutilmaganda askarlardan birining:

– Bolalar, quyon! Oldidan chiqinglar, ushlaymiz! – degan chaqirig‘i yangradi. Haqiqatdan ham biz to-monga oppoq bir quyoncha chopib kelmoqda edi. Hamma qilayotgan ishini tashlab, hoy-hoylagancha quyonchaning qarshisidan chiqdi. U kutilmagan bu tahdiddan qayoqqa qochishini bilmay, o‘zini yaroqsiz taxtalar uyumi orasiga urdi. Uning atrofini qurshab oldik. Kimdir chekkadagi taxtani ko‘tardi. Men esa chaqqonlik bilan quyonchaning orqa oyog‘idan ushlab oldim-da, uni tortib chiqardim.

– Barragina ekan! So‘yish kerak, qovurish kerak! – derdi yaqin kunlar ichida uyiga jo‘nashi kerak bo‘lgan askarlar quyonchani qo‘limdan tortib olishib. Quyoncha qo‘rqib ketganidan dir-dir qaltiramoqda

edi. Askarlardan biri pichoq olib kelish uchun yuguril ketdi. Shu payt kutilmaganda daraxtlar orasidan doimo qandaydir bir kuyni xirgoyi qilib yuradigan ozg'in serjant chiqib qoldi. Nigohi quyonchaga tushdi.

– Zo'r-ku! Qanday ushladinglar? – deb so'radi.

– Kerak bo'lsa, talkini ham ushlaymiz! – dedi askarlardan biri hazil qilib.

– Uni endi nima qilmoqchisizlar? – serjantning nigohida hayrat alomati aks etdi.

– Nima qillardik, qovurib yeymiz-da. Ana, pichod ham keldi... – dedi quyonchani ushlab turgan askar.

Serjantga tikilib turgandim, uning nigohi birdan ma'yus tortdi.

– Yaxshi, – dedi u, so'ng qo'lini quyonchani ushlab turgan askarga uzatdi. – Qani, menga ber-chi!..

Serjant quyonchani qo'liga oldi, uni bag'riga bosarkan, boshi aralash yelkasidan uzoq siladi. Oraga sukunat cho'kdi. Hansirab nafas olayotgan quyoncha qaltirashdan to'xtadi.

– Jonivor, qo'rhma... Senga hech kim ozor ber maydi. Hali juda ham yosh ekansan. Shuning uchun ham adashib, qo'lga tushib qolding-da. Bular ser bilan biroz hazillashmoqchi bo'lgan. Hoynahoy



seni hozir ota-onang intizorlik bilan kutib turgan bo'lsa kerak! – dedi u quyonchaning pirpirab turgan ko'zlariga nigohini qadab. So'ng bizlarga hech narsa demasdan davrani yorib chiqdi-da, o'n metrlar yurgach, quyonchani qo'yib yubordi. U sakrab-sakrab daraxtlar orasiga kirib ketdi. Serjant hatto ortiga qayrilib ham qaramadi. Biz uni o'rmon ichiga kirib, g'oyib bo'lguna qadar kuzatib turdik. So'ng hamma boshi quyi egilgancha ish joyiga tarqaldi. Quyonchaga vahshiy munosabatda bo'lganligimiz sababli bir-birimizning ko'zimizga qarashga botinolmasdik...





## DOG'

Anvarjonning adasi ishdan qaytishda bir tala shaftoli olib keldi. Ular shunday chiroyliki, xuddi otinga o'xshaydi.

Stol atrofiga Anvarjon, dadasi, oyisi, opasi, uka o'tirib shaftolixo'rlik qilishdi. Anvarjon bir shaftolini ikiga bo'lgan edi, barmoqlari orasidan shir etib shabat oqib ketdi.

– Suvini oqizmay, shoshmay yenglar, – dedi oyin tayinlab.

Ular shaftolini maza qilib yeyishdi. Qo'llari shi bo'ldi.

– Yana yeysizlarmi? – deb so'radi adasi.

Bolalar bosh chayqashdi.

– Bo'lmasa og'iz-qo'llaringizni yuvib kelinglar!

Anvarjon shoshib, dasturxonning bir chekkasiga qo'llarini artdi. Mo'tabar bilan G'anijon bo'lsa, qo'llari chovgumdag'i suvga chayib, sochiqqa artishdi.

– Aqli o'g'lim, yaxshi qizim, – deb erkaladi adasi G'anijon bilan Mo'tabarni.



Anvarjon ham yugurib borib qo'lini yuvdi, artindi. Keyin adasiga „Men ham aqlli bolaman“ demoqchi bo'lgan edi, ko'zi dasturxonidagi dog'ga tushdi. Dasturxon: „Meni nima qilib qo'yding?“ deyayotganday edi.

## HAMMANGIZGA RAHMAT

Erkinjonning bobosi juda ham qarib qolgan. Uning soch-soqollari dalada ochilib yotgan paxtaday oppoq. Qishloqdagi katta-kichik uni hurmatlab, Davlat bobo, deydi.

Davlat bobo doimo hassaga tayanib yuradi. Yuz-qo'lini yuvganda ham pastakkina kursichaga o'tirib olib, oldidagi obdastada yuvinadi.

Bir kuni bobo endi kursisiga o'tirgan edi, Erkinjon yugurib borib, obdastani keltirib qo'ydi.

– Rahmat, bolam, rahmat! – dedi bobosi.

Hayotjon akasining rahmat olganiga havasi keldida, xarxashaga tushdi:

– Men olib kelardim, men olib kelardim!

– Suv quyib yuboraqol, o'g'lim! – dedi shunda onasi.



Bu gapni eshitib, kichkintoy Dilorom obdastan olishga urinib:

– Yo‘q, yo‘q, men quyaman, – deb yer tepin boshladi.

Keyin Diloromga ham ish topildi. U sochiq keltiro

– Hammangizga rahmat, – dedi bobo sochiq olarkan.

Endi har kuni shunday: Hayotjon obdastani keltisa, Erkinjon bobosining qo‘liga suv quyadi. Dilorona esa sochiq tutadi.

## MEHRIBON

Salimjonning dadasi kechqurun katta qovun so‘di-da, bir kosasini onasining oldiga qo‘ydi. Qolgarlarini laganga karchladi. Salimjonning opasi Karomat qirg‘ich keltirib, buvisining qovunini qirib berdi. Hammalari qovun yeya boshlashdi. Faqat Salimjonga qina qo‘l cho‘zmay o‘tirdi.

- Oi, nega yemayapsan? – deb so‘radi oyisi.
- Menga ham o‘shanaqa qilib bering, – de Salimjon buvisi yeyayotgan qovunga ko‘z tashlab.
- Voy, buvimumning tishlari yo‘q-ku. Sen ham qarimisan?



Salimjon indamadi, keyin ko'z qirini tashlasa, buvisi qirilgan qovunni ham kavshanib yeyapti. Salimjon asta laganga qo'l cho'zdi.

Ertasi kuni Salimjon bog'dan shaftoli uzib chiqida, buvisiga mehribonlik bilan:

– Buvijon, qirg'ichingiz qani, shaftoli qirib bera-man, – dedi.

## XO'P BO'LADI

Usmonjon har doim baqirib gapirardi. Bir kuni akasi Raimjon:

– Usmonjon, tezroq kiyin, doktorga olib bora-man, – dedi.

– Nega endi, kasal emasman-ku! – dedi Usmonjon.

– Ovozing kasal bo'libdi. Juda baqirib gapiradigan bo'lib qolding, sal pastlamasak, hammamizni kar qilib qo'yadiganga o'xshaysan, – dedi akasi jiddiy.

Usmonjon avvaliga hayron bo'ldi, keyin gap ni-mada ekanini tushunib jilmaydi.

Lekin yana baqirib savol berdi.

– Bo'Imasa qanday gapirish kerak?

– Ana shundan sekinroq, – dedi akasi.

– Bo'Imasa qanday gapirish kerak? – dedi Us-monjon ovozini pastlatib.



- Yana sekinroq.
  - Bo'limasa shundoqmi, – dedi Usmonjon yaroq ovoz bilan.
  - Xuddi shunday.
- Usmonjon „Xo‘p bo‘ladi“, dedi-da, yugurganich ko‘chaga chiqib ketdi.
- Siz Usmonjon bilan bir gaplashib ko‘ring-a, tovus biram mayin.





## SHIRIN GILOS

Ravshan degan ukam bor. Maktabda o'qiydi. Daftarini qarasam, nuqlu „a'lo“ va „yaxshi“ baholarni ko'raman.


Bugun ham u maktabdan keldi-da, kiyimlarini o'zgartirdi. Yuz-qo'lini yuvib, choy ichdi. Bu vaqtda dadamlar hovlimizdagi ertapishar gilos daraxtining tagini yumshatayotgan edilar.

– O'g'lim, bugun menga ozroq qarashib yubor, – dedilar dadamlar. – Ishlasang, mehnatkash bo'lib o'sasan.

Ravshan lablarini cho'chchaytirib turdi-da, javob berdi:

– Voy, o'zingiz, sen mehnatkash bolasan, shuning uchun yaxshi o'qiysan, degandingiz-ku.

– Men darslaringni erinmay puxta tayyorlaganingni aytgandim, – dedilar dadamlar peshanalaridagi terlarini artib. Bilasanmi, o'g'lim, odam jismoniy ishlashi ham kerak. Mana, sen, menga yordamlashsang, gilos shirin bo'lardi.





Ravshan qiziqib qoldi. Daraxt tagini nomigagina yumshatdi, so'ngra „qani“ deb tayoq oldi-da, gilosdan bir dona urib tushirdi.

– Shirinmas-ku, – dedi u yeb ko'rarkan, aftini burishtirib. – Qaytanga taxir.

Shunda dadam tushuntirdilar.

– Qo'l uchida emas, rostakamiga ishlash kerak.

Oradan uch-to'rt kun o'tgach, ukamning gilos tagini kichik belkurak bilan yumshatayotganini ko'rib qoldim.

U rosa terlab-pishib ketibdi. Bir qarasam, Ravshan gilosdan do'ppisiga terib olib, yeya boshladi.

– Dada, – dedi u quvonib, – gapingiz rost ekan. Odam rostakam ishlasa, gilos ham shirin bo'larkan.

Dadamlar indamay, jilmayib turardilar. Chunki bu vaqtida gilos pishib qolgandi-da.

## TASHVISH

Yomg'ir yog'a boshladi. Birinchi yomg'ir. Bolakaylor kutgan yomg'ir tomchilari deraza oynalariga zarb bilan urilar, ichkariga kirishni jon-dilidan istagandek ovozi tobora kuchayardi. Biroq oynalar xuddi sodiq posbonlardek ularni to'sishga majbur edilar.



Intilganga tole yor! Tomchilar shamolni yordamga chaqirdilar-da, derazaning ochiq qolgan darchasidan uyga duvillab tusha boshladilar.

– Sovuq bo'lib qoldi-ku, – dedi uy egasi to'nini yelkasiga tashlar ekan, – bir-ikki kun yog'may turganda daladagi ishlarimni saranjomlab olardim.

– Qish yaqinlashib qoldi, – dedi uy bekasi. – Yomg'ir harakatingni qil, deyapti.

U deraza darchasini zichlab yopib qo'ydi. Tomchilar endi oynaning ko'z yoshlariga aylandilar.

Yetti yoshli Gavhar rasm daftarini keltirib, uy vazifasi sifatida indamay, yomg'ir rasmini chizishga kirishdi. Uning singlisi Kamola jajji barmoqlari bilan uy issig'idan terlay boshlagan deraza oynasiga quyosh suratini soldi.

– Sarvarjon qani?

Birdan kichkintoyni qidirib qolishdi. Ikki yoshli bolakay qiya ochiq eshikdan allaqachon hovliga chiqib ketgan, atirgul yaproqlarida paydo bo'lgan zarrin tomchilarni momiqdek, do'mboq qo'lchalari bilan tutib olishga harakat qilib, qiyqirib kulardi...



## GUL

Husniya o'rtoqlari bilan o'ynashni yaxshi ko'radi. Maktabdan keladi-yu papkasini peshayvonga tashlab, ko'chaga chopqillaydi. Onasining: „Hoy, qizim, avval choyingni ichib ol, keyin biroz uy ishlariga qarashib yuborasan“, deganiga ham parvo qilmaydi.

– Avval o'ynab olay, – deydi orqasiga qarab, – o'rtoqlarim ham ko'chada-ku.

Haqiqatan uning dugonalari ko'chada edilar. Lekin ular boshqa sinfda o'qiganlari uchun, uyga Husniyadan ancha oldin kelgan bo'lardilar. Onalariga yordamlashib, darslarini tayyorlab, keyin o'ynagani ko'chaga chiqardilar. Husniya ko'chada dugonasi Zulayhoni uchratib qoldi.

– Men bugun rasm chizishdan „besh“ oldim, – dedi Zulayho. – Ochilgan gulning suratini solgandim.

U shunday deb chopqillagancha, uyiga kirib ketdi-da, daftarini olib chiqdi. Rostdan ham chizilgan surat xuddi ochilgan atirgulga o'xshardi.

Husniya buni ko'rib xo'mrayib oldi. Chunki u ham shunaqa rasm solib, zo'rg'a „uch“ oldi-da.

– Ozgina o'xshatibsang, – dedi Husniya sir boy bermaslikka harakat qilib. – Meniki bundan ham yaxshi chiqqan.



Lekin baribir Husniya dugonasi bilan uzoq o'ynadoli. Nega deganda, Zulayhoning rasmdan „besh o'zi esa „uch“ olgani uchun unga alam qilardi-da.

Uyga kirsa onasi yana koyidi:

– Avval choyingni ichib ol, keyin menga qarashib yubor, qizim.

– Qarashib yubor, qarashib yubor, deysiz. Da tayyorlagani qo'ymaysiz. Ana, Zulayho rasmda „besh“ olibdi, – dedi Husniya.

– Ha, nima ekan u, sen chizolmaydigan?

– Ochilgan gulning rasmi, bildingizmi! – jerko berdi Husniya, battar tutaqib.

– Sen ham kun yoyilguncha o'rningda yotaverma vaqtli tursang, menga qarashsang „besh“ olasa tushundingmi, qizim? – javob qaytardi ona. – Negdesang shunda gulning ochilayotganini ko'rasan. Cko'zing bilan ko'rsang rasming ham o'xshaydi-da.

Husniya boshini biroz eggancha xo'mrayib o'yladi turdi. Keyin „Ertaga, albatta, hammadan oldi Zulayhodan ham oldin turaman“, deb ahd qilib qo'ydi.

## **TUYA**

Sahro. Oltinrang qum olov purkaydi. O'rkač o'rkač barxanlar osha vazmin odim tashlab tuy bormoqda. Uning ustida tuyakash va anchagina yu-



Manzilgacha xiyla yo'l bosish kerak. U har zamon, har zamon uzoq-uzoqlarga bo'ynini cho'zib, „Manzilga yetdikmikan“, deya termulib qo'yadi. U odamlarga necha asrlardan beri xolis xizmat qiladi. Sira tinim bilmaydi. Qishning izg'irin, yozning jaziramasi demaydi. Nima buyurishsa, shuni qiladi. Hatto biror marta qaysarlik qilgan emas. Yot deyishsa yotgan, tur deyishsa turgan.

Yozda hamma yoqni yondiraman deb turgan Qoraqum sahosiga ham tap tortmay kirib boraveradi. Hatto bu sahroda eng qudratli texnika ham gohida uning o'rnnini bosolmaydi. Unga na qarov, na o't-yem, na tunov joyi kerak. Shu ona Yer egasi bo'lsa bas. Yemishini ham o'zi topib yeydi, duch kelgan joyda mizg'ib olsa, bas.

Unga faqat bir narsa alam qiladi. Hech kim uni sevib erkalamaydi. Hatto odamlar eng yomon ko'rgan kishilarni „Tuyaga o'xshaysan-a“, deyishadi. Aslida esa...

...Tuya hamon yo'lda. U manzil sari olg'a qadam tashlab bormoqda. Oldinda esa past-baland barxanlar.



## **YUMRONQOZIQNING BAXT HAQIDAGI HIKOYASI**

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda, katta o'rmon tomonda bir yumronqoziq oilasi bilan yashar ekan. Uning oilasida onasi, otasi, bir akasi va bir ukasi bor ekan. Ular juda ahil, inoq yashar ekanlar. Biror o'ljani tutib olishsa, uni o'rtaga qo'yib, birga baham ko'rishar ekan. Agar biror fofja ro'y bergudek bo'lsa, uni tezda bartaraf qilishga tushisharkan. Ularning ahilligiga butun o'rmondagi hayvonlar juda havas qilar ekan. Hamma hayvonlar ularga qarab, o'z turmushlarini o'zgartirmoqchi bo'lishibdi. Lekin u yoki bu sabablarga ko'ra bu ishning uddasidan chiqa olishmabdi. Shunda ular yumronqoziqdan baxtli yashashning sirini bilishni istab qolishibdi. Barcha hayvonlar maslahatlashib, uning oldiga quyonni yuborishga qaror qilishibdi. Quyon yumronqoziqning oldiga borib shunday debdi:

– Sizlar juda baxtlisizlar! Buning sababi nimada?  
Shunda u javob beribdi:

– Baxtli bo‘lishning o‘z shartlari bor. Shu shartlarni bajarsangizgina baxtli bo‘lasiz. Baxtli bo‘lishning birinchi sharti – bu birdamlik, ahillik va hamjihatlik. Birdamlik, ahillik, hamjihatlikda xislat ko‘p. Har bir ishni birga qilish kerak. Axir aytishadi-ku, «Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar» deb. Birlashib qilingan ishda samaradorlik, baraka bo‘ladi.

Ikkinci sharti – tinchlik. Tinchlik, osoyishtalik bo‘lsa, hamma narsaga erishish mumkin. Avvalgi shart ikkinchi shartni yuzaga keltiradi. Umuman, ular bir-biriga bog‘liq – deb so‘zini davom ettiribdi yumronqoziq. – Qayerda birdamlik, ahillik, hamjihatlik bo‘lsa, u yerda hamisha tinchlik bo‘lishi aniq. Tinchlikdan oliv ne’mat yo‘q dunyoda. Baxt – bu birdamlik. Baxt – bu ahillik. Baxt – bu hamjihatlik. Baxt – bu tinchlik. Baxtli bo‘lish uchun shu shartlar bajarilishi lozim. Biz esa shu shartlar asosida yashashga harakat qilamiz. Shu sababli baxtlimiz.

Quyon baxtli bo‘lish sirlarini bilib olibdi va hayvonlarga aytib beribdi. Shundan beri bu o‘rmondagи barcha hayvonlar baxtli yashash sirlarini o‘rganib olishibdi.



## KIM AYBDOR?

Onalari eshikdan kirib keldi deguncha, qizchala ning janjali boshlanadi. Unisi u deydi, bunisi b Arzimagan narsa bahona, akalari Elmurod „Hade shunaqa qilaversalaring, oyimga aytib beraman desayam jig‘-big‘ bo‘laverishadi. Bugun yana o’sh tomosha.

- Oyi, qarang, Nargizangiz koptogimni bermayap
- Bu – meniki!
- Meniki!
- Ikkovingniki! – dedi Elmurod.
- Arqonimniyam yo‘qotdi, – yig‘lamsiradi Feruz
- O‘zing yo‘qotgansan!
- Men emas, o‘zing!
- O‘zing!
- Jim bo‘linglar, – dedi Elmurod oyisi qo‘lidamayda-chuyda to‘la sumkani olaturib. – Bularing quloqsiz bo‘lib ketishibdi. Ko‘chadayam cho‘p talashurishib kelishdi.

Onalarining ishdan charchab kelgani ko‘zlarida bilinib turardi.



- Janjallashmang, asal qizlarim. Arqonni tashlab ketgan ekansizlar, men olib qo'yganman, – dedi ikkala qizchani bag'riga olib.
- Arqonni Nargiz tashlab ketgan.
- Men emas, o'zi tashlab ketgan.
- O'zing!
- O'zing!


Ona qarasa, bolalari aybni nuqlu bir-birlariga to'n-kashyapti. Avvallari uncha-buncha e'tibor bermagan ekanmi?... „Oyijon“ deb yugurib oldiga kelish, o'y-nab-chopib yurish o'rnilga bunday qilishlari nimasi? Oqibati nima bo'ladi? Bularni o'ylab onasining yuragi g'ash tortib ketdi.

- Opa-singil ham shunaqa bo'ladimi? Inoq bo'l-sangiz, arqon ham tez topiladi. Ko'chada gap talash-sangiz, uyda talashsangiz... bizni uyatga qo'yasiz-ku.
- Nargizingiz birinchi bo'lib boshlaydi.
- Feruzangiz birinchi bo'lib boshlaydi.
- Ana, yana bir-biringizni aybdor qilyapsiz. Bu – eng yomon odat. Ahil o'ynanglar.
- Nargiz ahil o'ynamaydi.
- O'zing...
- O'zing...



– Anchadan keyin Nargiz „Oyi, qornim ochdi“, dedi. Feruzayam „Meniyam qornim ochdi“, dedi. Lekin bugun oyisi pishirayotgan ovqat ancha kechga qolgan edi.

Chunki...





## BUXORONI QACHON KO'RAMIZ?

Yulduz bilan Buxoroga birga boradigan bo'ldik. U suyunib ketdi. Kechgacha:

– Biza Buxoroga boramiz, biza Buxoroga boramiz, – deb dugonalariga maqtandi.


Ertalab o'qituvchidan javob olib xayrlashayotganda ham, doim qo'l ushlashib, birga o'ynaydigan Nigoraga qarab, alam qilsin degandek: „Dadam bilan Buxoroga boraman“, deb boshini qimirlatdi.

Samolyotda Buxoroga uchib keldik. U shunga-cha indamadi. Samolyotdan yerga tushishimiz bilan so'radi:

- Dada, qani Buxoro?
- Birpasdan keyin yetib boramiz, – dedim.

Shahardagi ammasining uyiga kirib bordik. Toshkentdan Yulduz kelibdi deb, opamning bolalari o'rab olishdi. Qanaqa o'yin o'ynaymiz deb, atrofida parvona bo'lib turishibdi. Yulduz bo'lsa, tez-tez menga qarab-qarab qo'yadi.

Onasini sog'indimi, deb o'ylayman. Dasturxon atrofida o'tirgan qarindoshlarimiz ham shunday





deyishdi. Yulduz har qaraganda qo'liga shokolad tutqażamiz, lekin u xursand bo'lish o'rniغا qovog'ini uyub olgan. Bo'lmasdi. Yonimga chaqirdim. Qorni ochgandir deb unga yarim kosa sho'rva suzib kelishdi. Sho'rva icharmikan, desam, ichmadi. Har xil o'yga bordim. Charchaganmikan yoki uyqusi kelganmikan? Aytganlarimning birortasi to'g'ri chiqmadi.

Engashib, Yulduzning qulog'iga shivirladim:

– Qorning och qoldimi?

U ham labini cho'chchaytirib, og'zini qulog'imga yaqinlashtirib so'radi:

– Dada, Buxoro qani?

Uning gapini eshitganlar kulib yuborishdi. Keyin uyalmasin deb:

– Sabr qil, hali Buxoroga boramiz, – deyishdi.

Yulduz pinjimga kirib oldi. Qarasam, yig'laydigan. Ko'chaga olib chiqdim. Shahar aylantirdim. Minora, madrasalarni ko'rsatdim. Baribir u:

– Dada, yuring Buxoroga boramiz, – deyishini qo'ymadi. Nima deb javob topsam ekan. Shu shaharning o'zi Buxoro, deb aytsam ham „Qani Buxoro“ deydi.

Toza zerikadigan bo'ldi, deb o'yladim. Ertasi kuni qishloqqa – buvisinikiga bordik. Bog'ni ko'rsatdim.



O'zim ishlarimni bajarish uchun yana shaharga tushdim.

Qishloqqa Yulduzni olib qaytish uchun borsam, buvisi ham menga tayinladilar.

– Nevaramga Buxoroni tomosha qildir, zerikmasin.

Yulduz buvisining gapidan xursand. Qaytishda yana unga Buxoro shahrini tomosha qildirdim. Endi xursand bo'ladi desam, qovog'ini osiltirib so'radi:

– Buxoroni ko'rsatmadingiz-ku?

Toshkentga qaytdik. Uyga kirishimiz bilan Yulduzning oyisiga aytgan birinchi gapi shu bo'ldi:

– Oyi-chi, dadam menga Buxoroni ko'rsatmadilar.

Kulgidan o'zimni zo'rg'a tiydim.

Yulduz ana shunday qilib Buxoro shahriga birinchi marta sayohat qilib qaytdi.



## QALPOQCHA

Mansur mактабга чироғи ўонги қалпоқча куйиб келди. Farhodga унинг бу қалпоқчаси ўоғиб қолди. Уяға келиши билан у дадасига: „Ўонги қалпоқча олиб беринг“, деб туріб олди.

Ertasiga дадаси Farhodga қалпоқча олиб келди. Ammo Farhodning назаріда бу қалпоқча Mansurnikidek чироғи емас edi. Mansurniki haqiqatan ham zo'r-da!

Darsdan keyin болалар Farhodlarning hovlisida rosa міриғиб о'ynадылар. Farhodning qop-qora, yuvosh kuchugi – Qoplon bolalarning yaqин доғсті. Bolalar унинг устига осилишиб, minib о'ynashsa ham parvoysi falak. U bolalarning ushoq ўуқи cho'ntagini hidlayveradi, hatto bolalarning yuzlarini ham yalab olади. Unga bolalar non, suyak berishsa bo'lgани.

Yana буниг устига Qoplon topag'on kuchuk edi. Biron narsani yerga ko'mib qo'ysangiz, у darrov topib keladi. Farhod kuchugini bunga o'rgatish учун ко'п mashq qilgan. Lattaga o'ralган suyakни allaqayoqlarga berkitib kelar, so'ngra uni topishга Qoplonni undardi.



Kechga yaqin bolalar tarqalisha boshlashdi. Shu payt Farhod bexosdan Mansurning yerda yotgan qalpoqchasini ko'rib qoldi. „Buncha chiroyli-a“, xayolidan o'tkazdi u. So'ngra qalpoqchani katta tosh tagiga berkitib qo'ydi. Buni hech kim sezmadni.

Hamma qalpoqchani axtarishga tushdi. Farhod ham hech narsa bilmaganday ularga qo'shilishib izlashdi. Qalpoqcha yerda ham, osmonda ham yo'q! Shu payt og'zida qalpoqcha, dumini likillatib qayoq-dandir Qoplon kelib qoldi.

- Mana qalpoqcham! – quvonib ketdi Mansur.  
U Qoplanni bo'ynidan quchib, erkaladi.
- Mening Qoplonim bo'limganda qalpoqchani to-pa olmas edik-a, – maqtandi Farhod do'stlariga, lekin o'zi negadir qizarib ketdi.
- Buning uchun Qoplonga rahmat aytish kerak, – deyishdi bolalar.





## BITIK

Yozda Turkiston tog'iga chiqqandik. Dam olishga bir buloq boshini tanladik. Lash-lushlarimizni gul va o'tlar orasiga qo'ydik. Sheriklarim tepamizdag'i qorli cho'qqiga o'rlab ketishdi. Men archazor o'rmon oralab yurdim va ko'k-yashil qoyaga duch keldim. Ko'zim yog'in-sochin, shamol-bo'ron tegmaydigan joydag'i tasvirlarga tushdi. Bu bitiklar qoyaga qancha chuqur o'yilmasin, zanjirli asrlar zarbidan xira tortib qolgan edi.

Tasvirlarga sinchiklab tikildim.

Birinchi bitik:

Odam o'q-yoy bilan bo'rining orqasidan boryapti.

Ikkinci, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi tasvirlar ham xuddi shunday:

Odam o'q-yoy bilan bo'rining orqasidan boryapti.

Faqat yettinchi bitik boshqacha:

Odam o'q-yoy bilan odamning orqasidan boryapti.

Buloq boshiga yig'ilganimizda bu haqda hamrohimga aytdim. Ular yeb-ichib o'tirishgani uchunmi, eshitib-eshitmasdi. Faqat rassom yigit larzaga keldi:



– Agar gaping rost bo'lsa, bu g'aroyib hodisa! – dedi o'rnidan turib. – Qani, yur, menga o'sha bitiklarni ko'rsat.

Uni ko'k-yashil qoyaga boshlab bordim. U qadimgi tasvirlarga uzoq tikilib qoldi va o'zgacha hayajon bilan dedi:

– Bu kelajak avlodlarga bitilgan bitiklar emasmi-kan!..

## OQ BULOQ

Bu voqeani bobomdan eshitgan edim. Bobomga bobosi aytgan ekan.

Past-balанд tog'lar... Kunchiqar qoya... Poyida Oqbuloq qaynab yotibdi. Tegra olma, chinor, o'tlar bilan yasangan. Etakda yovqur qabila yashayotir. Matlabi:

Mehnat,

Qo'shiq,

Erk!

Yovuz yov uni qul etmoqchi edi. Etolmadi.

Makr ishlatdi:

Oqbuloqni ko'mib tashladi.



Yovqur qabila suvsiz qoldi.  
Lekin sim-siyo tunda Oqbuloq olma qoshida ko'z  
ochdi.

Yovuz yov uni yana ko'mdi.

Oqbuloq chinor yonidan sizib chiqdi.

Yovuz yov uni yana ko'mdi.

Oqbuloq Kunchiqar qoya tagida qayta ko'z ochdi.





## UZUM

Har gal singlimni yo'qlab borganimda butun oila-da bayram bo'lib ketadi.

Bu gal qish oxirlab, bahor shabadasi esib qolganda yana shu tomonlarga safar qildim. Singlimning haya-jonini, sevinchini ko'rib, dunyoda shunday mehribonim borligidan quvonib ketaman. Uning jajji qizi:

– Tog'a ayam uzumlarni Sizga saqlab qo'ygan-lar, – dedi uy shiftiga osilgan 3–4 bosh uzumlarni ko'rsatib, – endi ikkalamiz yeymiz-a?

Singlim bu gapni eshitgani ham yo'q. Oshxonadan kelib, ilmoq bilan uzumlarni olyapti. Negadir to-mog'imga bir nima tiqilib, o'zimni zo'rg'a tutdim. Shu damda u mushfiq onamga juda ham o'xshab ketdi. Bir zumda bolaligim ko'z oldimga keldi. Ko'chalardan chopqillayverib charchab, ochiqib kelgan paytlarimda onam xuddi shunday mehribonlik bilan oldimga darhol dasturxon yozar, issiq non va tokda avaylab to qish kelguncha uzilmay saqlanuvchi uzumlardan olib qo'yardi. Singlim dasturxonga ehtiyoitlab qo'ya-

yotgan uzumlar emas, mehrning o'zi edi. Men bunday mehrni bir paytlar onamda ko'rardim. Endi bu jonbaxsh tuyg'uni singlimda uchratib, boshim osmon-ga yetgudek baxtiyor edim...





## DUMBUL POLVON

Tilim bir qarich osilib, o'pkam shishib, hars-hars qilib marraga hammadan keyin yetib keldim. Bolalar shu zahotiyoy meni o'rab olishdi. Biri:

- Oxiridan birinchi bo'lganing bilan tabriklayman! – desa, ikkinchisi:
- Qizlardan ham harob ekansan-ku! – derdi.
- Ey, menga qara, sharmanda qilding-ku! Shuna-qa ekan, ilgariroq aytmaysanmi? – deb do'q urard boshqasi.

Jahlim chiqqanidan indamadim.

Qarang, bekordan-bekorga xafa bo'lishyapti. Cho-polmasam men aybdormanmi? O'zлari qo'yishmadi.

To'g'ri, mendan ham biroz o'tdi. Biz bu yerga yaqinda ko'chib kelganmiz. Ko'chib kelgan kunimiz akamning „dengizchi“ deb yozilgan shapkasini kiyib ko'chaga chiqqan edim. Bolalar meni ko'rib, savo yog'dira ketishdi:

- Oting nima?
- Qayerdan ko'chib keldinglar?





– Dengiz bo'yidanmi?

„Bo'kadan ko'chib kelganmiz“ desam ular Boku-dan deb eshitishibdi.

– O, Bokudan bo'lsa, rosa suzishga ustadirsan sportga qiziqasanmi? – deb yana savolga ko'mib tashlashdi. Men ham taltayib:

– Ha, Bokudan ko'chib keldik. Dengizda rosa suzganman, sportning hamma turi bilan qiziqa-man, – deb sal ko'pirib qo'yuvdim, baloga qoldim deng.

Mahallalarida ko'chalararo musobaqalar o'tayot-gan ekan, bolalar „Mahallamiz nomidan musoba-qaga qatnashib berasan“, deb turib olishsa bo'ladi mi? Maqtanib qo'yganman. Na iloj, qatnashsam qatnasha qolay, dedim. Har holda natijalar yomon bo'lindi Mana, bugun ham yugurish bo'yicha sog'-saloma-hammadan oldin bo'lmasa ham, hammadan keyir-marraga yetib keldim.

... Endi yana bitta musobaqa qoldi. Bu – kurash Ana shu kurashda qoyil qilmoqchiman. Kurashning ham siri bor-da! Bobom: „Makkajo'xorining dumbulin qo'rga ko'mib qancha ko'p yesang, shuncha ko'p semirasan, og'ir bo'lasan“, deb aytganlar. Qani, se-ni birov yerdan uzib olsin-chi! E, ovora bo'ladi



E, o'sha To'lan polvon ham bellasha olmaydi. Bu galgi kurash musobaqasidan g'olib chiqib, yangi mahallamiz bolalarini bir xursand qilay. Shu bugundanoq dumbulxo'rlikni boshlab yuboraman. Lekin sizdan bitta iltimosim bor. Bu sirni hech kimga aytib qo'ymang, xo'pmi? Ha, yashang!!!

E, men sizga aytsam, odamlardan biror sirni yashirib bo'lmas ekan. Qarangki, uch-to'rt kun ko'chaga chiqmay dumbulni qo'rga ko'mib urib yotgan edim, birdan mahallamiz bolalari bilib qolishsa bo'ladimi!

– Kurashga tushasanmi? – deyishdi hammalari xaxolashib.

– Tushaman! – dedim, dumbulga to'yib olgan edim, uning kuchi bilan gerdayib.

– Yo'q, – deyishdi bolalar jiddiy, – yetar, suzishda-ku cho'kib o'lishingga ozgina qoldi, sakrashdan oyog'ingni sindirib olay deding. Har ikkisidan ham bir amallab oxirgi o'rinni olib berding. Endi kurash tushaman degin, dumbul polvon!

Shu-shu mahallada nomim Dumbul polvon bo'lib qoldi. Bu nomdan endi qanday qilib qutulsam bo'lar ekan-a, siz maslahat berolmaysizmi?



## GUDOK

Lobarni ko'rganlar, ana gudok kelyapti, deydigan bo'lishgan. Nega deysizmi? Chunki u bo'lar-bo'lmasha qulqoqni batangga keltirib tovushi bo'g'ilguncha aril-layveradi-da. Shunisi qiziqliki, baqirib yig'laganiga yarasha ko'zidan bir qatra ham yosh chiqmaydi. O'zi kichkina bo'lsa ham ja ayyor-da. Sababi hali kichkina deb ko'ngliga qarayverishgan, nima desa, shuni bajarishgan, mana oqibati.

Dadasi qarasa, Lobarning qichqirig'i kundan-kunga oshib, har xil xarxashalari ko'payib ketdi. Keyin ularning joniga tegib, Lobarning aytganini qilmay qo'yishdi. Lobar xip bo'g'ilib qolguncha qichqirdi. U qichqirib-qichqirib ko'zini qiya ochadi-da, menga kim qarayotganikin, deb o'g'rinchqa qarab ham qo'yadi. Hech kim nazar-pisand qilmayotganini ko'rib battar alam qilib qichqira boshlaydi. QichqiraverGANidan ovozi chiqmay qolib, ancha mahalgacha hiqillab o'tirdi, keyin zerikdi, shekilli, „Bor-e, yig'lab menga nima zaril, hech kim eshitmagandan keyin“, deb uyiga kirib ketdi.

Shu-shu u yig'lamaydigan bo'lgan. Bo'lmasa yana o'ziga jabr-da!



## ONA BILADI

Hasan qaldirg'ochning iniga chiqib, qo'ynida uch-to'rtta tuxum bilan qaytib tushdi.

- Menda tuxum, qushning tuxumi, – maqtandi o'rtoqlariga.
- Qani, qani...
- Qo'y, bolam, onasi kelsa qarg'aydi, joyiga chiqarib qo'y, – dedi buni ko'rgan buvisi.
- Onasi men olganimni qayerdan biladi?
- Onasi biladi, bolam, qo'y joyiga.
- Mayli, – istamaygina yana iniga qo'yib tushdi.

Bir-ikki kun o'tgach, uyni qaldirg'och bolalarining ovozi tutdi.





## **QULOG'I TOPILDI**

– Kechagi aytganlaringiz-chi, oyi, hammasini o'ganib bo'ldim, aytib beraymi?

– Ha, mayli. Bo'lmasa oyog'ing qani?

Erkinjon:

– Mana, – deb oyog'ini ko'tarib ko'rsatgan ed yiqilib tushishiga sal qoldi.

– Qulog'ing-chi?

– Mana,

– Qani, yo'q-ku?

– Mana turibdi-ku, hozir oynaga borib qarab kelay-chi, turibdimikan. Siz qalpog'imning tagida turga ni uchun ko'rmayotgandirsiz.

Erkinjon oynaga qarab kelib:

– Bor ekan-ku. Mana, – dedi qulog'ini cho'zib ko'rsatib.

– Baribir qulog'ing yo'q, nega deganda boy supurgini olib kelib ber, desam, qulog solmading. Gapga qulog solmagan bolalarni qulog'i yo'q bol deyishadi.



Erkinjon chopib borib, hovlining bir chekkasida, daraxt tagida turgan supurgini ko'tarib keldi va:

– Endi qulog'im bor-a? – dedi.

## KAPALAK DEBMAN

Dilbar keng gulzorda kapalak tutib yurar edi. Bir yoq cho'ntagini rango-rang kapalaklarga to'ldirib, ustidan dastro'moli bilan yopib qo'ydi. Bo'lmasa tutilgan kapalaklar uchib ketishi mumkin-da, axir o'zingiz o'ylang, kim ham tutqunlikda yashashni istaydi, albatta hech kim...

Shunday qilib ikkinchi cho'ntakni ham kapalak bilan to'ldira boshladi. Shunda qizcha birdan baqirib yubordi:

– Ha, qizim, nima bo'ldi? – yugurib bordi oldiga onasi.

– Qo'lim og'riyapti, qarang, semirib ketdi, endi nima qilamiz-a? – g'ujur-g'ujur qilib yig'lardi Dilbar.

Onasi kului-da, uning qo'liga namakob surib qo'ydi.

Birdan qizcha yana baqirib qoldi.

– Ha, yana nega yig'lab qolding? – so'radi ona kuyib-pishib.



Dilbar o'ng yonboshini ko'rsatib dodlar edi. Ona bunday qarasa, cho'ntagida kattakon qovog'ari qizchaning bo'ksasini chaqmoqchi edi. Ona arini oyog'ostiga olib, shartta o'ldirdi.

– Eng chiroyli kapalakni o'ldirib qo'ydingiz, – dedi u.

– Axir bu ari-ku, nega ushlading, hamma chiroy narsa yaxshi bo'lavermaydi, – dedi ona unga.

U esa:

– Men uni kapalak debman, – dedi ko'zlarini piratib.

## UKAMNING TILI

Qorachadan kelgan, kipriklari uzun-uzun, ko'zlar qop-qora munchoqdek, sochlari qo'ng'iroq ukam bo'Yoshi oltida. Eski tishlari tushib, o'rnilga yangi tishchiqyapti. Uning tili chuchuk – „R“ harfini „L“ de talaffuz etadi.


- Isming nima, hoy bola? – so'radim ataylab.
- Lustam, – dedi iljayib.
- Lustam emas, Rustam, demaysanmi? Damning ismi-chi?
- Botil, – dedi.



- Deraza degin-chi?
- Delaza.
- Rom deb aytib ko'r-chi, osongina.
- Lom.

Men rosa qotib-qotib kuldim.

U esa kipriklarini pirpiratib, hayron qarab turardi.





## **UZUN QO'L**

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir Nuri degan qizcha bor ekan. U chiroyligina, quvnoqqina ekan. Lekin qizchaning g'alatiroq odati bor ekan. Oyisi ming koyimasin, tushuntirmasin, mehmon kelganida uning yoniga o'tirib olar ekan. Bu ham mayli-ya, umrida hech narsa ko'rmagandek, dasturxonga qo'l uzatgani-uzatgan ekan. Oyisi mehmonlar oldida shunday xijolat bo'larkanki...

Bu gal ham shunday bo'libdi. Nuri qizil qog'ozli popukni olib ochibdi-da, darrov og'ziga solibdi. Uni qarsillatib yeb bo'lgach, yana dasturxonga qo'lini uzatibdi. Yana uzatibdi, yana uzatibdi... Xuddi shu payt kutilmagan voqeа sodir bo'libdi. O'ng qo'li o'z-o'zidan uzayib, mehmonning oldida turgan issiq somsani olibdi. Nurining og'zi ham o'z-o'zidan ochilib, somsani hash-pash deguncha yeb tashlabdi. Mayiz-u yong'oqlarni kappalab otibdi. Olma-noklarni g'archillatib chaynabdi. Oyisi uyalganicha, Nurining





etagidan ohista tortibdi. Nuri negadir „voy“ deb yuborgan ekan, qo'llari birdaniga bir-ikki gazga cho'zilib ketibdi. Shu cho'zilganicha cho'zilaveribdi. Hatto ko'cha eshikkacha yetadigan bo'lib qolibdi. Mehmonlar qo'rqqanlaridan tiraqaylab qochib qolishibdi. Nuri nima qilarini bilmay yig'lab yuboribdi. Oyisi ham nima bo'layotganiga tushunolmay hayron emish...

Mehmonlar qocha turib:

- Qandaydir sehrli so'z bor. Faqat o'sha so'zni aytsang, qo'ling o'z holiga qaytadi, – deyishibdi.
- U qanday so'z ekan, bolajonlar bilmaysizmi?

## KECHAGI GAP

Qobiljon oyisi bilan ketayotib, yiqilib tushdi. Oppoq ko'y lagi tuproq bo'ldi.

- Ko'zingga qarab yurgin, o'g'lim? – dedi oyisi muloyim.

Lablari burilib kelayotgan Qobiljon erkalanib yig'lab yubordi. Lekin darrov tina qolmadi. Yig'layverdi-yig'layverdi.

- Uyat bo'ladi, kap-katta bola, – dedi oyisi uning ko'y lagini qoqa turib.
- Og'rib ketyapti... Og'rib ketyapti.



- Qayering?
  - Hamma yog'im..., - deya yana avjga chiqdi
- Qobiljon.

Oyisi Qobiljonning erkalik qilayotganini bilsa ham o'tgan-ketganlardan xijolat torta boshladи. Oxiri o'g'lining qulog'iga bir nima degandi, u yig'idan taqqa to'xtadi... Oyisi xursand bo'lib ketdi.

Ertasiga Qobiljon mактабдан qaytgach, o'ynagani ko'chaga chiqdi. O'rtog'ini chaqirmoqchi bo'lib keta-yotgan edi, yo'lдagi toshga qoqilib, yana bo'y-baravar yiqildi. Tizzasi og'ridi. Biram yig'lagisi keldi. Lekin bu gal u yig'lamadi. Oyisining kechagi gapi esiga tushib ketgandi.

Oyisi nima degan ekan-a?!





## O'RGIMCHAK

Vali oromgoh oldida turgan yuk mashinasini ko'rib, uning yoniga yugurdi. U mashinani juda yaxshi ko'radi-da. Atrofida aylanib yurdi. U yoq-bu yog'ini kovlab ko'rди. Keyin bunday qarasa, qo'li qop-qora moy bo'libdi. Endi nima qiladi? Qo'lini daraxt tanasiga ishqagandi, toza bo'ljadi.

Shunda juda xunuk ish yuz berdi – u dorga osib qo'yilgan choyshabga qo'lini artdi. Buni Hafiza ko'rib qoldi.

- Voy, nima qilib qo'yding-a?
- Nima, ko'ylagimga artganim yo'q-ku. Bu oromgohnning choyshabi. Bildingmi!
- Oromgohniki bo'lsa, nima...
- Hozir seni ustozimizga aytib beraman!
- Aytsang, ayta qol, – dedi-da, Vali qum o'yna-yotgan o'rtoqlarining oldiga yugurdi.

Bolalarning uxlaydigan vaqtি bo'ldi. Vali yechinib karavotga yotdi. Yotdi-yu, qo'rqib ketdi. Choyshabda

katta o'rgimchak turgandek bo'ldi. Qarasa, o'rgimchak emas, dog' ekan. Boya o'zi qo'lini artgan choyshab. Choyshabda qorayib qolgan besh panjasining izi rostdan ham xuddi oyoqlari tarvaqaylab turgan o'rgimchakka o'xshardi.

Vali dog'dan ko'zini olmay qarab yotdi. Keyin mudray boshladi, o'rgimchak bo'lsa, oyoqlarini qimirlatib, unga qarab yurganday bo'ldi. Vali sakrab karavoldan tushdi, piqillab yig'lay boshladi. Xonaga kirgan oromgoh mudirasi Halimaxon:

- Valijon, nega yig'layapsan? – deb so'radi.
- Qo'rqtyapman.
- Nimadan qo'rqasan? Kel, yota qol.
- Anu o'rgimchak...

Halimaxon shunda choyshabdagi dog'ni ko'rди:

- Voy buni kim iflos qildi?

Vali indamadi. Halimaxon murabbiya bilan kir yuvadigan Mehri xolani boshlab keldi. Ular choyshabni ko'rib, juda xafa bo'lishdi.

– Nega bolaga kir choyshabni berdinglar, – deb Halimaxon ikkovini ancha koyidi.

Hafiza hali uxlamagandi:

- Choyshabga Vali qo'lini artdi, – dedi u.



– Choyshabga qo'l artganmiding? – deb so'radi Halimaxon Validan.

Vali indamadi, yerga tikilib turaverdi.

– Qani, qo'lingni ko'rsatgin-chi! Voy-bo', sovun bilan sochiqni bekorga qo'ygan ekanmiz-da, – dedi Halimaxon, – men bo'lsam opang bilan keksa xolangni koyib o'tiribman-a!

Valiga boshqa choyshab berishdi. U tez yotdi-da, uyalganidan yuzini choyshab bilan berkitib oldi.

## **TO'NG'ICH O'G'IL**

Hayajondan olov sochlari hurpayib, ko'zlari ola-kula bo'lib ketgan Quyosh yon-veriga qaragan edi, Merkuriyni ko'rди.

– Hoy, Yerning atrofida shataloq otib yurgan bu tirmizak kim o'zi? – deb unga qarab qichqirdi. – Qaydan paydo bo'libdi?!

– Bilmasam, hozir ko'rib turibman, – dedi yelkasini qisib Merkuriy.

Quyosh battar tutoqib ketdi.

– Bu qanday gap? Olamda million-million yillardan buyon hukm surgan, mustahkam tartibni buzib, men

boshqarib, jilovlab turgan yulduz, kometalar orasiga o'zboshimchalik bilan suqilib olgan kim bu?!

Quyosh Shimol yulduzidan, Zuhra yulduzidan, keyin Marsdan so'radi. Ular ham bilishmadi.

Quyosh axiri uzun, nurli qo'lini cho'zib, keksa Oyning biqiniga turtdi. Oy bo'lsa mudrab ketayotgan ekan, cho'chib orqasiga qaradi.

– Ha, nima? – dedi u ajablanib.

Muloyim, doim ochiq chehra Quyoshning bunday qo'polligini endi ko'rgan Oy: „Nima balo, salom yo'q, kalom yo'q, tomdan tarasha tushganday...“ dedi ichida.

– Anu, Yerning yonida irg'ishlab yurgan kim? – dedi baqirib Quyosh.

– Ey-y... – dedi Oy cho'zib, – u Yerning to'ng'ich o'g'il-ku. Endi bir haftalik bo'ldi! – dedi suyunib.

Quyosh nima deyarini bilmay, „him...“ deganicha, toychoqqa o'xshab sakrab, antennalarini tik qilib uchayotgan Yerning o'g'ilchasiga suqlanib, havas bilan tikilib qoldi.

– Yerning o'g'ilchasi onasidan ham, mendan ham chaqqon chiqib qoldi, – dedi Oy. – U bir soniyada 8 kilometr yo'l bosadi! Bu yurishida hademay mening



oldimga, hatto sening oldingga ham borib qolsa ajab emas!

Dono, bahodir, uchqur Yer o'g'lining tug'ilganini bilgach, Quyosh ham jahlidan tushdi.

Endi u ham quvonib ketgan edi.





## UCHAR YONG‘OQLAR

Alisher doim qishloqdan bobosining kelishini orzi-qib kutadi. Axir bobosi shaharga tushadigan bo'lsa, albatta ularga yong'oq olib keladi-da. U yong'oqni juda yaxshi ko'radi. Hatto ertadan kechkacha non o'rniga yong'oq bersangiz ham yo'q demaydi. Yaqinda oyisi, endi senga yong'oq bermayman, deb po'pisa qildi. Chunki yong'oqni juda ko'p yeb yuborgan ekan, tili og'rib, hatto ovqat ham yeyolmay qoldi. Haligacha tilining qizili ketgani yo'q. Shuning uchun ham u bobosi kelib qolguday bo'lsa, qanday qilib yong'oq so'rashni o'ylab yurardi.

– Topdim, – dedi Alisher xursand bo'lib. – O'y-nayman, deb olaman-da, sekin bildirmay yeb qo'yaman! Yo'q, yaxshisi, ularga sezdirmay olaman. Bilib qolishsa-chi? Unda nima bo'ladi? Bilishmaydi, yong'oqni sanab o'tirishibdimi? – U o'z savoliga javob topganidan xursand edi.

Alisher mashinasiga to'ldirib qum solib olib, hovlini gir aylanib yurganda bobosi kirib keldi.



- Hormang, Alisherbek!
- Alisher shoshib orqasiga qaradi.
- Bobojon! – Alisher bobosining bag'riga otildi.  
Menga yong'oq olib keldingizmi?
- Olib keldim, – bobosi uning peshanasidan o'pi  
qo'lidagi xaltani ko'rsatdi. – Hammasi senga.  
    Alisher xaltani olishga ulgurmasdanoq, oyisi chiq  
qoldi.
- Keling, dadajon, qishloqdagilar tinchmi? – ho  
ahvol so'rab bo'lgach, oyisi xaltani bobosinir  
qo'lidan oldi. – Alisher yong'oq yemaydi, buvasi,  
tuzalsin, keyin beramiz.
- Yeyman, yeyman, – dedi Alisher yig'lamsira  
bobosiga qararkan.
- Alisher yaxshi bola, aytganiningni qiladi, – de  
bobosi ham oyisining gapini ma'qullab, – shunda  
ligicha olib qo'y, tili tuzalsa yeydi, ha, aytmoq-ch  
ko'p berma, yong'oq issiq narsa, ko'p esa yan  
chaqa toshib ketadi.
- Keyin bobosi Alisherni maqtadi. Uni, gapga kir  
digan bola, dedi. Alisherga bobosining erkalashla  
yoqib tushdi. Xursand bo'lib yana mashinasining  
diga bordi. Birpas o'ynagan bo'ldi-yu, biroq ko'z  
didan yong'oq to'la xalta ketmadi. Oyoq uchida y



rib oshxonaga kirdi. Ichkari uyda bobosi bilan oyisi gaplashib o'tirishibdi. Javonni ochdi. Qarasa, bobosi olib kelgan xalta turibdi. Xaltaning og'zini shoshilib yechdi. Do'ppisini yong'oqqa tez to'ldirib, ko'chaga otildi.

Alisher ikkinchi marta uyga kirganida o'rtoqlari eshik oldida poyloqchi bo'lib turishdi...

Oradan uch-to'rt kun o'tgach, oyisi javonni ochib xaltachaga ko'zi tusharkan, „Voy chatog'-ey“, deb uyga kirib:

– Dadasi, xaltachadagi yong'oqlar qayoqqa uch-gan ekan-a, bilmaysizmi? – deb so'radi.

Oyisi dadasidan so'radi-yu, ammo Alisherdan ko'zini uzmadni.

- E, – dedi dadasi, – yong'oq ham uchadimi?
- Uchmasa, kimdir chaqib yegan bo'lsa kerak.
- Alisherdan boshqa kim yergi, – dedi dadasi.
- Yo'q, – dedi Alisher, – men yemadim. Tilim...
- Unda kim yedi ekan?
- Bobom meni yeyolmaydi deb, yarmisini olib ketgandirlar-da, – dedi Alisher.

– Bobong ataylab senga olib kelsalar-u, yana qaytarib olib ketarmidilar, – dedi dadasi gapga aralashib.





Alisher indayolmay qoldi.

- Kim yong'oq yeb, yemadim deb yolg'on gapirsa, ertalabgacha qorni shishib ketadi, – dedi oyisi qovog'ini solib.
- Keyin nima bo'ladi? – dedi Alisher qo'rqb ketib.
- Nima bo'lardi, yorilib ham ketishi mumkin, – dedi oyisi.
- Axir, axir yong'oqni bir o'zim yemadim-ku, Farhod bilan Bahromlar ham yeishdi-ku, – dedi Alisher qo'llari bilan qornini ushlab.

## RASSOM QIZ

Har doim ustozi: „Hozir rasm chizamiz“, deganida Iroda juda xursand bo'lib ketadi. Axir u rassom bo'immoqchi-da. U juda ko'p rasm solgan. Uyda opalari dars tayyorlagani o'tirdi, deguncha, Iroda ham qog'oz, qalam olib, surat chizishga tushadi. Dadasining bir rassom og'aynisi bor. U doim ularnikiga kelganida:

- Qani, rassom qizim, solgan suratlaringni ko'rsat-chi, – deydi.

Hammadan ham Irodaga rassom amakisining ko'pchilik oldida „rassom qizim“ deb atashi juda yoqadi. Iroda hatto matabda chizgan rasmlarini



ham uyg'a olib keladi. Axir ularning hammasini rassom amakiga ko'rsatadi-da. Agar undan:

– Katta bo'lsang, kim bo'lmoqchisan? – deb so'rashsa, u tillarini burro qilib:

– Men rassom bo'laman, – deydi.

Lekin bir kuni juda qiziq voqea ro'y berdi. Damanish kuni edi. Iroda dadasingning yoniga kelib:

– Dada, kimning suratini chizay? – deb so'ray-verdi. Shunda dadasi:

– Mening suratimni chiz-chi, qanaqa chiqarkin, – dedi kulib. Iroda darrov bo'yoqli qalamlarini ishga solib, dadasingning suratini chiza boshladи. U suratni chizib bo'lgach, hammaga birma-bir ko'rsatib chiqdi. Shu payt rassom amaki kelib qoldi. Amaki uyg'a kirishi bilan Iroda yugurib borib:

– Amaki, mana dadamlarning suratlarini chizdim, – dedi maqtanib.

– Qani, qani, rassom qizim, – dedi rassom amaki suratni qo'liga olarkan.

Iroda rassom amaki nima derkin, deb, yoniga borib turdi.

– Iye, qizim, – dedi rassom amaki rasmga qarab, – dadangning qulog'i yo'q-ku, endi dadang gapimizni eshitmaydilar-da.

Iroda shoshib suratni qo'lliga oldi. Haqiqatan ham dadasining qulog'i yo'q edi. U ko'zlarini javdiratib turdi-da, birdan yig'lab yubordi.

– Ana xolos, rassom qiz ham yig'laydimi, – dedi amaki uni yupatib.

– Endi, endi dadamlar mening gapimni eshitmaydilar-da, – dedi mushti bilan ko'zlarini artib Iroda.

– Yig'lama, qizim, qani, menga qalamni berchi, mana bunday, ko'rdingmi, quloq chizib qo'ydik, endi dadang bizning gapimizni yaxshi eshitadi, – dedi amaki. Iroda suyunib ketib, yugurib dadasining yoniga bordi-da:

– Dada-chi, dada, endi siz bizning gapimizni eshitasziz, qulog'ingiz bor, – dedi rasmni ko'rsatib...





## O'G'RI MUSHUKCHA

Kechga yaqin maktabdan qaytgan Akbar uygardir. Uyga kirganda:

– Iya, mushukcha! – deb qichqirib yubordi. Stol ustida ganchdan qilingan chipor mushukcha turardi. Akbar chaqqonlik bilan mushukchani oldi-yu, tash-qariga yugurdi, uni ko'rgan dadasi to'xtatib qoldi.

– Ha, qayoqqa?  
– Tohirlarning mushukchasi bor. O'sha yoqqa olib boraman. Birga o'ynashadi.

Dadasi bilan oyisi qotib-qotib kulishdi. Oyisi uning lo'ppi yuzidan o'pib qo'ydi. Akbar jilmayib turardi. Dadasi yaqin kelib, uning qo'lidan mushukchani oldida, tushuntira boshladi.

– Bu mushuk o'ynamaydi, shkafning ustida turadi. Mana, qara! Mushukning boshi teshik. Ko'rdingmi? Ha, barakalla! Ana shu teshikchaga ertalabki chalqalarining bor-ku, ana o'shalarni tashlaysan!

– Keyin ularni qayerdan chiqarib olaman? – so'radi Akbar.



Dadasi yana kului.

– Mushukchaning ichida qoladi. Chaqani solaver-sang, ichi to'ladi. Keyin ostidan sekin ochib, chaqalarni chiqaramiz-da, do'kondan senga velosiped sotib olamiz...

Akbar ertalabki chaqalarini topib, mushukchaga tashladi. Keyin uni qulog'i yaqiniga keltirib silkib ko'rdi. Uning ichidagi chaqalar g'alati ovoz chiqardi. Dadasi bilan oyisi yana uchta chaqa berishdi, ularni ham mushukchaga tashladi. Yotish oldidan Akbar dadasidan so'radi.

– Dada, anavi mushukchamga qog'oz pul ham tashlasa bo'ladimi?

Dadasi hech narsani o'ylamasdan javob berdi:

– Ortiqcha bo'lsa, bo'laveradi.

Akbar mushukchani tezroq to'ldirish istagi bilan uxbab qoldi.

Bir kuni Akbarlarnikiga qishloqdan Po'lat tog'asi keldi va yotib qoldi. Ertalab Akbar katta xonaga kirsa, Po'lat tog'asi hali uxbab yotibdi. Akbar qarasa tog'asining kiyimlari osilgan stuldan pastda, yerda qizg'ish qog'ozlar yotibdi: „Pul-kul! Yashasin!“ sevinib ketdi Akbar...



Nonushtadan keyin Po'lat tog'asi yo'lga otlandi.  
Lekin u negadir g'alatiroq edi.

– Opa! – dedi u nihoyat Akbarning oyisiga, –  
to'rt-besh so'm berib tursangiz, yo'l kiraga...

– Voy, ukajonim-ey... yo'lkiraga bo'lsa, tortinmay  
so'rayvermaysanmi? – dedi Akbarning oyisi.

– To'g'ri-yu, – dedi qizarib tog'asi, – kechagina  
pulim bor edi, mana bu cho'ntagimda edi... qarasam,  
yo'q, yo'l-po'lida...

Akbar sekingina tashqariga chiqib ketdi. Dadasi  
uning ortidan qarab qolar ekan, o'g'li qog'oz pul ha-  
qida so'raganini esladi va oyisiga o'girilib so'radi:

– Akbar zalga kirgan edimi?

– Kirgandek bo'luvdi, – dedi oyisi.

Akbarning dadasi qizarib ketdi. Tog'asining  
e'tiroziga qaramay, oyisiga „Chaqir o'g'lingni!“ – deb  
buyurdi. Akbar qimtinib ichkariga kirdi.

– Tog'angning puli qani? – so'radi dadasi.

– Tog'amdan pul olmadim.

Dadasi o'rnidan shart turdi-da, shkaf ustidagi mu-  
shukchani olib keldi. Akbar nimaligiga tushunmay  
dir-dir titradi. Hamma hayron.

– Pulni mushukcha olgan! – dedi dadasi qat'iy.  
So'ng mushukning ostidan pichoq bilan teshik och-



moqchi edi, u birdaniga ikkiga ayrilib, ichidagi tanga-chaqalar sochilib ketdi. Ular orasida besh-oltita buklangan qizg'ish pullar ham bor edi. Dadasi pulni olib, tog'asiga berdi.

– Men uni poldan topuvdim! – dedi Akbar yig'-lamsirab, – mushukchamni sindirib qo'ydingiz!

– Mushukchang o'g'ri mushukcha ekan! – dedi dadasi, – agar sen o'zimiz bergen chaqalarni solsang, u hali-beri sinmas edi.

Ikkiga ajrab yotgan gips mushukcha esa Akbarga:

– Ikkiga bo'linishimga o'zing aybdorsan, – deya-yotganday edi.





## SOVG‘A

Sherbek uyqudan ko‘zini ochar-ochmas:

– Dada, tug‘ilgan kunimga qancha qoldi? – deb so‘radi.

Dadasi aytdi. Nihoyat bir kun qolganda u dadasiga:

- Ertaga mening tug‘ilgan kunim, – deb eslatdi.
- Yaxshi, nima sovg‘a qilay? – dedi dadasi.
- Rasm daftar, bir quti bo‘yoq qalam, yana... –

Sherbek jilmaydi.

– Kichkina odamning talablari ham kichik, – dedi dadasi kulib.

Sherbek tushunmadi. Endi so‘rayman, deb tur-ganida dadasi ishga ketib qoldi. Kechqurun dadasi ishdan qaytganini Sherbek uzoqdan ko‘rdi. Qo‘lida qalin qog‘ozga o‘rog‘liq allanima. Dadasingin orqa-sidan chopib hovliga kirdi.

„Nima olib kelganlar ekan, dadam?!” Sherbek-ning juda bilgisi keldi-yu, lekin so‘rashga botinmadi, chunki tug‘ilgan kuni ertaga. Shunday bo‘lsa ham... Sherbek hech kim yo‘qligida mehmonxonaga se-kingina kirdi-yu o‘rog‘liq narsalarni ko‘rdi. Voy!



O'sha, o'zi aytganlari! Kattakon qizil koptok... keyin, hozir dadam kirib kelsa-ya, deb qo'rqib narsalarni joyiga qo'ydi-da, oyoq uchida yurib hovliga chiqdi. Uning odati g'alati: quvonganida tipirchilab bir joyda turmaydi. Bu safar ham shunday bo'ldi. Sherbek ko'chaga, o'rtoqlarining oldiga chopdi.

Sherbekning tug'ilgan kuni dadasi bilan oyisi: „Katta yigit bo'l, aqli bo'l, yalqov bo'lma“, – deb tabriklab, sovg'alar berishdi. O'rtoqlari bilan Sherbekni xo'p mehmon qilishdi.

Sherbek ertasiga rasm daftariga dadasi sovg'a qilgan bo'yoq qalamlar bilan surat chizdi. Kechki payt stolning bir chetiga o'tirdi-da, ochiq derazadan ko'kka qarab-qarab qo'ydi:

– Mana bu Oy, – dedi qog'ozga bir tilim tarvuz po'chog'i shaklini chizib. Undan besh enlik pastga chaqir tikanga o'xshagan bir shakl chizdi-da: – bu yulduz, – deb tushuntirdi dadasiga. Keyin qog'oz betidagi bo'sh qolgan joyni quyuq ko'k bo'yoq bilan bo'yab bo'lib: – Oydin kechaga o'xshaydimi? – deb so'radi.

Dadasi Oyning tortilgan kamalakdek bo'lib turganini hech ko'rmagan edi. O'ylanib qoldi.



Sherbekning o'zi javob qildi:

– O'xshaydi! Ishonmasangiz, ana, qarang.

Dadasi ochiq derazadan ko'kka qaradi: haqiqatdan ham oy bilan undan pastroqdagi yulduz tortilgan o'q-yoyga o'xshab turibdi.

Sherbek ularning yoniga kelgan akasining bo'yniga osilib, qulog'iga:

– Ko'p rasm chizib, dadamning tug'ilgan kunlarida sovg'a qilamiz, – deb shivirladi. Ikkovi ham jilmaygan-cha dadasi turgan tomonga sirli qarab qo'yishdi.

Sherbek har kuni rasm soladi. Goho uning qu-shi samolyotga, mushugi esa... mushugining boshi koptokka, gavdasi qutichaga, dumi arqonga o'xshab qoladi. Lekin Sherbek rasm solishdan hech erinmaydi. Har safar yangi rasmni tugatgach, dadasiga ko'rsatadi, agar dadasi maqtasa:

– Sizning tug'ilgan kuningiz qachon? – deb so'-rab qo'yadi.



## KO'CHAT

Ilgari bo'lar-bo'lmasga xarxasha qilaveradigan to'polonchi Farruh birinchi sinfga chiqdi-yu o'zgardi-qoldi: o'zi kiyinadi, o'zi kiyimiga dazmol bosadi. Bir qarasangiz, hovli supuradi, bir qarasangiz choynakpiyola yuvadi. Oyisi iltimos qilsa, ukasini „yo'q“ demay ovutib, o'ynatadi.

Bir kuni uyning chekkasida qilgan ishi dadasi ham hayron qoldirdi:

Hovlining chekkasida gulxona paydo bo'lib qolibdi. Yer yaxshilab chopilganki, ko'rgan odamning ko'zi quvnaydi.

– Kim chopdi? – deb so'radi dadasi katta o'g'li Dilshoddan.

– Farruh, Farruh chopdi, – dedi u. – Men unga qarashdim.

– Qani o'zi?

– Bilmadim. Hozirgina shu yerda ketmon ko'tarib yurgandi. Bog' etagida bo'lsa kerak.






Haqiqatdan ham bog' etagida qo'lida ketmoncha ko'targan Farruh chuqur kovlayotgan ekan.

- E-ha, nima harakat, o'g'lim?
- Ko'chat, ko'chat ekyapman, – dedi u ketmon-chasini yerga qo'yib. – Olma, „Razmarin“.
- Razmarinmi? – dedi dadasi kulib, – qani, ket-monni menga ber-chi.
- Yo'q, o'zim.

Farruh unamadi. Ko'chatni o'zi o'tkazdi. Keyin uyga kirib, bir uchiga ip o'tkazilgan qog'oz yulduz olib chiqdi va uni ko'chat shoxiga ildi.

Ko'chatning nozik shoxlari shabadadan quvona-yotganday asta-asta tebranar edi.





## **YOMG'IRDA**

Bahor havosini bilib bo'ladimi. Charaqlagan oftob edi. Ishdan chiqsam osmonni qop-qora bulut bosib yomg'ir shivalayapti. Avzoyidan quysa quyadiki, ammo tinadigan emas. Aksiga olib soyabon ham yo'q. Plashsiz, boshyalang, toza ivir ekanman, deb xiyobondan shipillab ketayotsam, kichkinagina bir qizcha sada qayrag'och tagida shumshayib turibdi. Egnida oq fartuk, oyog'ida shippak.

– Ha? – dedim engashib.

Qizcha soyabon tagidan qaradi-da:

– Yomg'ir yog'ib ketdi, – dedi xomush, – o'qishdan qaytayotganingda xolangnikidan soyabonni ola kel, degan edilar oyim...

– Uying olismi?

– Yo'q.

– Bo'lmasa nima qilib turibsan? – dedim tushunolmay, – soyaboning bor-ku.

Qizcha javob bermadi. Anchadan keyin:

– Shippagim loy bo'ladi-da, – dedi bejirim qizil shippakchasiga qarab.



Bola-da, tayyor soyaboni bo'lsa, shipillab keta-vermaydimi?

– Loy bo'lsa tozalab olarsan, qizim, tag'in uydagilar xavotir olib o'tirmasin, – dedim-u ketmoqchi bo'ldim. Biroq shu topda chaqmoq chaqib, butun xiyobonni ko'kimir tusga bo'yab o'tdi. Ko'z ochib yunguncha yomg'ir jalaga aylandi-yu, arang sada qayrag'och tagiga qochib ulgurdim. Qizchaning yoniga cho'nqayib, men ham yomg'irning pasayishini kutdim.

– Qiziq-a, – dedi bir mahal qizcha jilmayib.  
 – Nima?  
 – Eticingiz bor ekan.  
 – Ha, bor. Nima edi?  
 – Ammo soyaboningiz yo'q ekan.  
 – Yo'q, qizim, yo'q. Ertalab olishni unutibman.  
 – Mening soyabonim bor-u, etigim yo'q...  
 – Buni qara-ya, – dedim qizchaning maqsadini tushunib, – mening etigim senda yo sening soyaboning menda bo'lsa, bittamiz allaqachon uyda o'tirgan bo'lar ekanmiz-a.

– Ha, amaki.  
 Qizcha afsuslanib bosh chayqadi. Birdan menga o'girildi-da:



- Mang, – dedi qo'limga soyabonni tutqazib, – ola qoling.
- Yo'g'-e. Nima deyapsan. O'zing-chi?
- Meni qo'yavering, – dedi yalinib, – yomg'ir pasayishi bilan chopqillab ketaveraman.

Ammo men ko'nmadim. Shunda u o'ylab turib:

- Bo'lmasa meni ko'tarib oling, – dedi, – soya bonni ushlab ketardim. Sizning boshingizdan yomg'ir o'tmasdi. Mening esa oyog'im loy bo'lmasdi.

– Bu taklifingga roziman, – dedim quvonib.

Shunday qilib, ikkalamiz ham manzilga yetib oldik. U uyga, men esa avtobus bekatiga.





## ALLA

Buvimga qizchamni tutqazib, o'zim ishga shoshdim. Ichkariga quloq tutaman. Hozirgina g'ingshib turgan qizcham birpasda jim bo'ldi-qoldi. Buvim alla aytyapti.

– Buvi, allangiz muncha ma'yus!

– Nima!

Bildimki, gapim buvimga yoqmadı.

– Buviningning allasi yoqmasa, o'tirib o'zing ayt. –

Buvimning achchiqlari keldi. – Bu allani buvangning onasi rahmatlik aytgan, dadang shu alla ohangida uxlagan. Men bu allani senga aytganimda uxbab qolarding. Endi yoqmay qoldimi?! Bolam, onasining allasini unutgan odam o'zligini unutadi. Onalar hamisha tinchlik, farzandga sog'liq va baxt-saodatni tilab alla aytishgan. Bolam, sen ham bu allani unutma.

Xijolat chekkanimdan buvimni quchib, uzr so'rardim. Buvim alla aytadi. Alla quvonchli qo'shiqday oqadi.

Buvimni nevaralari o'rab olishadi.

– Buvi, ertak aytib bering, – chug'urlashadi ular.

Buvim vazminlik bilan ertagini boshlaydi:



„Qadim zamonda Xorazmga ko'z tikkan podshohlar-u davlatlar ko'p ekan. Uni bosib olish uchun bir zolim podshoh lak-lak lashkarlarini shaylab yo'lga tushibdi. Ko'p yuribdi, yo'l yursa ham mo'yuribdi. Qirq kecha-yu qirq kunduz jang bo'libdi. Xalq podshoh lashkarlarini shaharga yaqin yo'latmabdi. Dushman hiyla yo'liga o'tibdi. Xorazmga suv kiradigan to'g'ONNI bekitib qo'yibdi. Qamalda qolgan odamlar tashnalikdan juda qiynalib, yana jangga otlanishibdi. Jangchilar orasida bir onaning uch navqiron o'g'il ham bor ekan.

Ikki farzandi halok bo'lib, kenjasি hamon olisha-yotgani to'g'risida xabar topib, ona jang maydoni tomon yo'l olibdi. Yetib kelganida, o'g'lining oyoq-qo'lini kishanlab endigina podshoh oldiga olib kirgan edilar. Shu payt mungli, ezgulikka to'la alla yangrabdi. Yigit ona allasini tinglab dalda topganday, boshini baland ko'taribdi. Podshohning ham ko'ngli eribdi. U tong mahali to'g'ONNI ochib, yigitni bo'shatib yuborishlarini buyuribdi. Uning bu qarori navkarlarni hayratga solibdi.

– Podshohim, nima sababdan qaroringizdan qaytingiz!? – debdi navkarlaridan biri.





– Men beshigim ustidagi allani unutibman... Qaysiki xalqning allasi yangroq ekan, uning ovozini o'chirish qiyin, – debdi podshoh.

Hukmdor qamal qilishdan voz kechib, lashkarlari bilan o'z yurtiga qaytib ketibdi“.

Alla ana shunday qudratga ega.

– Buvijon, allani kim chiqargan? Qachon? – Chug'urlab so'rashdi nevaralari.

– Juda qadim zamonlarda, hali dunyoda qo'shiq yaralmagan bir paytda alla yaralgan. Bir ona farzand ko'rarkan, lekin farzandi ikki-uch kun o'tib o'lib qolar ekan. Ona yana farzand ko'ribdi. Qo'liga olsa, chaqaloq nafas olmas emish. Shunda ona qalbidan bir nido otilib chiqibdi-da, tiliga ko'chibdi, sukunatni buzib yangrabdi. Bu nidoni eshitib chaqaloq chinqirib yig'lab yuboribdi. Bu – hayotdan nishona. Shundan buyon dunyoga kelgan chaqaloq yig'lab ko'z ocha-digan bo'libdi. Alla o'shandan beri kuylanib, tillardan-tillarga o'tib, bizgacha yetib kelibdi...



## ONA

Endigina tili chiqayotgan go'dak ilk bor „ona“ so'zini aytди.

Onasi: „Shakar tilingdan aylanay, qo'zichog'im“ deb bag'riga bosdi, ona farzandi yonoqlaridan cho'lp-cho'lp o'pdi.

Go'dak sal ulg'aydi. Nimadandir xursand bo'lib, shodligini olamga sig'dirolmay, qo'llarini yoyib „ona-a“, deb qiyqirdi.

Shu kezda ona-bolaning shodligi dunyoning shodligi edi.

Bola hovlida o'ynab yurganida birdaniga momaqaldiriq guldiradi. Yer-u ko'k larzaga kelganday bo'ldi. Bola qo'rqqanidan „Ona-a“ deb jonholatda baqirdi. Ko'zlari jovdirab onasini izladi. Qarshisiga yugurib kelgan onasining quchog'iga o'zini otdi.

Ona: „Qo'rqib ketdingmi, bolaginam, qo'zichog'im“, deya bolasini bag'riga bosdi. Boshini siladi, ko'z yosHLarini artdi.

Kunlardan bir kun bola shamollab qoldi. Isitma aralash: „Ona-a“ deb alahsiradi. Bolasining boshida



parvona ona kaftini farzandi peshanasiga qo'ydi. Bola ko'zlarini ochdi. Termulib turgan najotkorini ko'rib vujudida quvvat sezdi. Kulimsiradi. Ona farzandi qoshida tun bo'yi mijja qoqmadi.

Bola ulg'ayib, voyaga yetdi. Har bayramda sovg'a-salom ko'tarib, eshikdan „ona“ deb kirib keladi. Ona: „Bolaginam, bormisan, ko'zim to'rt bo'lib o'tirgandim“, deb farzandiga peshvoz chiqadi.

Hech banda dunyoda boqiy emas, onaning umr chirog'i so'ndi.

Farzand: „Onam-ov, onam!“ deb faryod chekdi, bo'zлади.

Yillar o'tdi, uning ham umr intihosi keldi. Olamdan ko'z yumar ekan, „ona...“ deb shivirladi...






## TO'RTKO'Z

To'rtko'zning qattiq vovullashidan cho'chib uyg'onib tashqariga otildim. Hovli chetidagi tovuqxona tomi ustida katta qora mushuk ko'zlarini yondirib, simto'r ichidagi jo'jalarga hamla qilmoqchi bo'lib turardi. Keyingi paytlarda mana shu qora mushuk tovuqxonaga yomon o'rgangan, uch-to'rt jo'jalarning ham boshiga yetgan edi. Bechora To'rtko'z zanjirini uzguday o'zini turli tomonga otar, qo'yib yuborishimni kutar, o'sha qora mushukni chaynab tashlash niyatida edi. Men ba'zan dam olish kunlari To'rtko'zni uyimiz ortidagi jarlikka olib tushar, aylantirib, o'ynatib qaytardim. To'rtko'z aqli edi, uyga kelgan mehmonlarga huda-behudaga tashlanmas edi.

Bir kuni tunda To'rtko'z o'zini o'ldirguday qattiq akilladi. Uydagilar uyg'onishdi. Men ham yugurgancha tashqariga chiqdim. To'rtko'z hamon tovuqxona tomon intilar, hovlini boshiga ko'targudek bo'g'ilib akillardi. Shoshilib tovuqxona tomon yaqinlashdim. Katakda ona tovuq ko'rinas, jo'jalar esa chuvillashib





turli tomonga qochishardi. Tovuqxonaning atrofini ko‘zdan kechirdim. Yerda patlar sochilib yotar, lekin ona tovuqning o‘zi yo‘q edi. Ona tovuqni o‘scha qora mushuk gumdon qilgandi.

„Endi nima bo‘ladi? – o‘yladim beixtiyor, – oyim, itni qo‘yib yubor, deganlarida gaplariga qulog solmagan edim. Jo‘jalarni kim boqadi?“ Oyimdan qo‘rqib o‘rnimga yotdim-u, boshimni burkab oldim. Ertasiga ertalab chindan ham oyim meni koyib berdilar. Baribir To‘rko‘zni qo‘yib yubormadim. To‘rko‘zga ishqibozlar ko‘p, uni o‘g‘irlab ketishlari mumkin edi.

Oradan ikki kun o‘tgach, To‘rko‘z yana qattiq vovullab yerni tirnab, o‘zini turli tomonga otib, oxiri zanjirni uzib yubordi. Men bu gal tashqariga chiqishdan qo‘rqib jim yotaverdim. Keyin esa yana vovullah va big‘illash ovozlari eshitildi. Asta o‘rnimdan turib deraza pardasini tortdim, tashqariga nazar tashladim. To‘rko‘z zanjirini chindan ham uzgan, qandaydir qop-qora narsani tishlab irilliard. Tezlik bilan tashqariga chiqdim va To‘rko‘zga yaqinlashib zanjirni tortdim. To‘rko‘z hali-beri bo‘sh keladigan ko‘rinmasdi. Holsizlanib qolgan mushuk og‘zini kappa-kappa ochib, xirilladi.



Ertalab bu voqeadan oyim bilan dadam xabar topib yoqalarini ushlashdi.

– To'rtko'z qora mushukning adabini berdi, – dedim quvonib ularga. Shu kundan boshlab To'rtko'zni zanjirga solmaydigan bo'ldim. U tovuqxona simto'ridan jo'jalarga qarar, termilardi.

Boshqa bir kuni To'rtko'zni tovuqxonada ko'rdim. U bir chetda yotar, jo'jalar esa uning bag'riga kirib o'zlarini isitar edilar. Keyinchalik tovuqxonada suyaklar, nonlar paydo bo'la boshladi. To'rtko'z o'ziga berilgan ovqatlarni jo'jalarga ilinardi.





## OYI, QARANG

Farhod hovlida gul o'tqazayotgan edi, tunukali tomga tap etib bir narsa tushdi. Qarasa, qaldirg'och. U tipirchilayapti. Farhod shoshib tomga chiqqan edi, qaldirg'och sirg'alib tarnov yoniga borib qoldi. U sekin borib, qaldirg'ochni ushladi. Qanoti qon, shikastlanibdi. Farhod uni avaylab pastga olib tushayotganida ko'zi qo'shni hovlida ragatka ushlab turgan Karimga tushdi. Farhod unga xo'mrayib qo'ydi.

– Bu o'shaning ishi, – pichirladi uning lablari.

Farhod uyga kirib qaldirg'ochning qanotiga oyisi bergen dorini surtdi.

Shundan beri Farhod mактабдан keladi-yu, yaralangan qushchasiga qaraydi. Qanotiga dori surtadi, don-suv beradi. Qushcha ham ancha o'ziga kelib, qanotini asta-sekin ko'taradigan bo'lib qoldi. Buni ko'rgan Farhod:

– Oyi, qarang, tuzalyapti, – derdi sevinchini ichiga sig'dirolmay.

...Kuz keldi. Qushlar ko'm-ko'k osmonni to'ldirib uzoq yurtlarga birin-ketin uchib keta boshladilar.



Shunda Farhod ham qaldirg'ochini qo'yib yubordi. Uy atrofini ikki-uch aylandi-da, ko'kka parvoz qildi.

Yana bahor keldi. Qushlar uchib kela boshladi. Farhod ko'kka ko'z tikib, „Qaldirg'ochim kelarmikan?“ deb kutardi. Nihoyat bir kuni tarnovga bir qushcha kelib qo'ndi-da, chirqillaganicha atrofga alanglay boshladi. Farhod qarasa, o'sha o'zining qaldirg'ochi. Chiroyli bo'lib ketibdi. Faqat bir qanoti qiyshiqroq, uchganida yiqilib tushayotganday tuyuladi.

– Oyi, qarang, bulturgi qaldirg'ochim, – deb qich-qirdi Farhod quvonib.

Oyisi derazadan tashqariga qaradi.

– O'sha. Qara, topib kelibdi. Bir kun tuz totgan joyga qirq kun salom, deb shuni aytadi-da, bolam...

...Shundan beri har bahorda qaldirg'och Farhod-larning uyi tepasida ikki-uch aylanadi, go'yo qulluq qiladi...



## BEGUNOH QUSHCHA

Aziz chumchuqlarni yomon ko'radi. Negaki, bu qushchalar ularning bog'idagi uzmamlarni cho'qilab ketishadi. Onasi har kuni ertalab bog'dan uzum olib chiqib, dasturxonga qo'yarkan chumchuqlardan noliydi:

– Qancha qo'risang ham, chumchuqqa bas kelib bo'lmaydi. Tosh otsang, shovqin qilsang ham uchmaydi. Shunday uzum uzgani engashgan payting „pir“ uchib chiqaveradi. Ol, bolam. Yaxshi-yaxshisini terib ye.

Aziz indamaydi. Chumchuq tegmagan uzum donalarini bitta-bitta og'ziga soladi. „Shirin, – o'ylaydi u. – chumchuqlar ham nima shirin, nima achiqligini bilsa kerak“.

Uzum ayni pishganda Azizning akasi shahardan o'qishdan keldi. Onasi akasiga ham chumchuqlardan shikoyat qildi.

– Aziz ko'rinxayaptimi? – dedi u.  
– Azizing nimayam qilardi, chumchuqlarning qanoti bor, ushlatmaydi.



– Azizga o'zim rogatka yasab beraman, hammasini qiyratadi.

Akasi so'zining ustidan chiqdi. Bitta ayri shoxni qirqib, qo'lga mosladi. Keyin qayerdandir rezinka topdi. Daxlizdag'i eski sholchadan ozginagina qirqib, rezinka bilan uladi.

– Ana, tayyor bo'ldi. Endi bu bilan chumchuq otasan, – dedi akasi qilgan ishidan mamnun bo'lib. – No'xat donasidan sal yirikroq yumaloq toshni boyagi sholcha qirqimi orasiga joyladi.

– Ko'zlab otsang, chumchuqqa tegadi. Agar toshing yaxshi bo'lsa eng zo'r chumchuq ham o'la-di, – tushuntirdi u. O'zi bog'ga chiqib sadaga ragatkani to'g'irladi. Ayrini o'ng qo'lida ushlab, chap qo'li bilan sholcha qirqimini o'ziga tortib turib qo'yib yuborgan edi, sadadagi qushlar „gurr“ etib uchib ketdi. Aziz zavqlandi. Xursandligidan nuqlul iljayadi. Akasi rogatkani unga berdi.

– Ma, sen ham otib ko'r-chi.

– Otishni o'rganib oldim. O'zim otaveraman, – dedi Aziz. U boshqa daraxtni mo'ljal qildi. Bu gal ham qushlar cho'chib uchib ketdi. Shu kuni Aziz kechgacha bog'da aylanib qushlarni hurkitib yurdi. Ertasi ham uyqudan turiboq rogatkani olib bog'ga



chiqdi. Qushlar Azizdan erta uyg'onib allaqachon uzum cho'qishni boshlagan edi. Sadada, o'rikda, boshqa daraxtlarda g'uj-g'uj qushlar bor edi. U rogatkaga tosh joylab endi otmoqchi bo'lib turgan edi, shundoqqina boshi ustida – hali meva bermagan o'rik shoxida – chumchuq chirqilladi. Aziz o'girilib uni izladi. Aftidan, yaqindagina uchirma bo'lgan palapon bo'lса kerak, pastda turgan Azizni ham payqamay, o'zicha „chirq-chirq“ qilardi. Aziz rogatkani qushchaga to'g'riladi. Yaqinroq bordi. Hayajondan yuragi gupillab urardi. Bir ko'zini qisib, ikkinchi ko'zi bilan nishonni uzoq vaqt ko'zladı. Keyin chap qo'lini o'ziga tortib, toshni qo'yib yubordi. Aziz hozir qush uchib ketadi, deb o'ylagandi. Ammo bunday bo'lmadi. Qushcha tap etib yerga tushdi. Aziz avvaliga suyunib ketdi. Lekin, tipirchilab yotgan qushchani ko'rgach, bir zum ag'rayib qoldi. Aziz qushchani qanotidan ushlab sal ko'targan edi, uning tumshug'i qonga bo'yalganini ko'rди. Aziz unga juda-juda achindi. U qushchaning pir etib uchib ketishini istardi. Afsuski...

U rogatkaning ikki ayrisini kuch bilan tortdi. Rogatka sindi. Keyin rogatkani ham, chumchuqlarni ham o'sha yerda qoldirib, uyga kirib ketdi.



## OTLAR

Eti suyagiga yopishgan qari Saman va endigina kuchga to'lgan qizil Qashqa yog'och oxuridagi xushbo'y pichanni qitirlatib chaynardi. Qayerdandir arpa to'la yem xaltani ko'tarib otboqar paydo bo'ldi. Qari Samanga parvo ham qilmay, yem xaltani Qashqanинг go'shtdor bo'yniga avaylabgina osdi va qayoqqadir g'oyib bo'ldi.

Qashqa yolini erinibgina silkitib tillarang arpani chaynay boshladi. Qari Saman boshini xam qilganicha unga qarab-qarab qo'ydi, so'ng zaifgina kishnadi. Bir-bir odimlab Qashqaga yaqinlashdi. Ko'zlar javdirab xaltadagi arpani hidlab ko'rди.

Shu payt otxonani otlarning olatasiri, kishnashlari tutib ketdi. Qashqanинг kuchli tepkisi Samanинг ko'zi aralash keng peshanasiga tegdi. Saman ortiga tisarildi-da, beixtiyor yana arpaga intildi. Keyigi tepki uni cho'kkalatib qo'ydi. Qari Samanning nursiz ko'zlaridan o't chaqnadi. Gursillab yerga yiqildi, chang ko'tarildi...

Ko'p o'tmay otboqar yana otlar oldida paydo bo'ldi. Qashqanining bo'ynidagi bo'shagan yem xaltani olib, uni aravaga qo'shdi. Qonli peshanasini tuproqqa suykab yotgan Samanga qaramadi ham.

Ot-arava yo'lni changitib uzoqlashib boryapti. Qari Saman zir qaqshab og'riyotgan boshini yerdan qiynalib ko'tarib uzoq-uzoqlarga tikildi, ko'z oldini quyuq tuman qopladi. Tobora uzoqlashib borayotgan ot-arava elas-elas ko'rinib qolar, yo'q, ot-arava emas, go'yo o'zi olislarga yelib ketayotgandek bo'lar, o'zining yeldirim kechmishi ko'z oldidan lip-lip o'tayotgandek edi. So'nggi bor quvvatini to'plab uzuq-yuluq kishnadi.

## EGIZAKLAR

Tun. Beshta soylikdan iborat Galasoyni zulmatdek qorong'ulik qoplagan. Har bir soylikka qo'y otarlari yoyilgan.

Kutilmaganda Galasoy qo'y-qo'zilarning yurakni ezuvchi ma'rashiga, bo'ribosarlarning akillashiga, „qur-ey, qur-ey“ degan qiyqirig'iga to'ldi. Shu payt soyliklardan bo'rilarining uvullashi eshitildi. Miltiq gumburladi. Galasoy larzaga keldi.



Mudrab yotgan Tolg'ir va sheriklari sapchib oyoqqa turishdi-da duch kelgan qo'zilarni yorib kelayotgan bo'rilarga tashlanishdi. Tolg'ir oq qo'yni yorayotgan itning bo'ynini mo'ljallab sapchidi. Raqiblar olisha ketishdi.

Bo'ri ko'zlari yonib Tolg'irni bo'g'a boshladi. Bir daqiqalik olishuvdan so'ng Tolg'ir o'zini o'nglab oldida, hansirayotgan yirtqichni tuproqqa beladi, o'tkir panjalari yirtqichning ko'kragiga qadalgan Tolg'ir yovuz bo'ridan onasining hidini olgandek bo'ldi. U g'ajib turgan yolni bir dam bo'shatdi. Yirtqich ham Tolg'irdagi g'alati hidni sezdi. Emikdoshini tanidi. Ammo u bo'rilar orasida o'sgandi. Go'dakligida uni yirtqichlar tishlab, har tomonga uloqtirishgandi. Qiynashgandi. Yirtqichlikni, yovuzlikni o'rgatishgandi.

Bo'ri achchiq uvlaganicha darmonsizlangan Tolg'irga tashlandi. Bir siltashda dumini yulib ketdi. Yirtqich dumini g'ajib tashladi-yu, cho'nqayib qolgan Tolg'irning qorniga yopishdi. Tolg'ir chap berishga ulgurdi. Bo'ri mukkadan yiqildi. Tishlari qisirladi.

Tolg'irning oldida ikki yo'l turadi. Yo o'zi halok bo'lishi yoki aksincha, bo'rini qonga belashi kerak edi. Bo'rilar orasida ulg'aygan Tolg'irni tilka-pora

qilib tashlashni xohlardi. Bolaligidagi mehr-shafqat so'ngandi.

Dumi yulingan Tolg'ir quvvatini to'plab yirtqichga otildi. Uni qonga belab tashladi. Ochko'z bo'ri jonholatda tipirchilar, lekin turishga madori qolmagandi. Galasoyni qon hidi tutib ketdi.

Og'zidan qon sizayotgan Tolg'ir joni uzilgan bo'rini hidladi-yu, alamli g'ingshidi.

Hozirgina panjalarida jon bergan bo'ri uning emikdoshi – Olg'ir edi. Ular go'dakligida qo'y otarlariga bo'rilar hujum qilishdi. Ona itni yorib ketishdi. Shu kecha yirtqichlar Olg'irni o'rtaga olishib, majburan ergashtirib ketishgandi. Tolg'ir otarda qolgandi.

Tolg'ir ortiga tisarila-tisarila emikdoshidan uzoqlashdi. To'xtadi. Yana cho'zib-cho'zib uvulladi. Ortiga o'girildi. U Olg'ir murdasini tashlab ketolmadi. Jarohatlangan oyog'ini sudray-sudray ortiga qaytdi. O'tkir tirnoqlari qayrilib, ko'zlari qonga to'lib, emikdoshining ustiga tuproq socha boshladi.



## TABASSUM

Oppoq yuzli, do'mboqqina Nilufar maktabdan keldiyu, jingalak sochlaridagi lentaşini yechar-yechmas lablarini cho'chchaytirib:

– Oyi, qornim ochdi, non, shokolad? – dedi.

Onasi kulimsiradi:

– Avval salomlash, yuz-qo'lingni yuv, qizalog'im, keyin hamma narsa topiladi.

Onasi choy damlab keldi.

– Choyingiz issiq ekan-ku, ichmayman, – deya Nilufar yig'isini boshlab yubordi. Onasi bo'lsa, unga qarab, beparvodek o'tiraverdi. Shu payt eshik ochilib, Nilufarning aka-opalari kirib kelishdi. Qo'llarida gul, yana bir narsalar. Ular Nilufarga e'tibor ham berishmadidi. Onalarini „Tug'ilgan kuningiz qutlug' bo'lsin“, – deya tabriklay boshladilar.

Nilufar yig'idan to'xtadi. Beixtiyor o'rnidan turib, onasi tomon yurdi. Ko'zidagi yilt-yilt yoshlарini artmadi. Uning kulcha yuziga tabassum yugurdi. Onajonining bag'riga otildi. Onasi ham xursand bo'lib, uning yuz-qo'llaridan „cho'lp-cho'lp“ o'pdi:



- Asal qizim, shakar qizim, dono qizim...
- Menda sovg'a yo'q, – dedi Nilufar.
- Unday dema, ona qizim, sendan eng zo'r sovg'ani oldim.

Ayting-chi, Nilufar onasiga nima sovg'a qildi?

## OQTOY

Sobir akam bir kuni ishdan kelayotib, yo'l chetidan oppoqqina kuchukcha topib olibdi. Ko'rib juda xursand bo'ldim. Mayin yunglarini silab, akamga:

- Kuchukchaning oti nima ekan? – dedim.
- Qaydam, osongina Oqtoy deya qolamiz, – dedi akam.

Shu-shu bo'ldi-yu, uni Oqtoy deb chaqira boshladik. O'ziga ham oti yoqib qoldi, shekilli, O... harfini boshlashim bilanoq dumini likillatib, yonimga chopib keladi. Biroz katta bo'lgach, ko'chaga chiqadigan odad chiqardi. Izlab zo'rg'a topadigan bo'ldim. Shunda akam:

- Endi Oqtoy butunlay yo'qolib qolmasin. Bog'lab qo'yganimiz ma'qul, – dedilar.

Oqtoy bo'ynidagi qayish tasma-yu uzun zanjirni harchand harakat qilsa-da, uzolmadi. Bundan jahli



chiqib, menga ham vovullaydigan bo'lib qoldi. Unga faqat akam ovqat bera boshladi.

Yoz o'ttalarida akam quruvchi o'rtoqlari bilan boshqa shaharga ishga ketdi. Oqtoyning holidan xabardor bo'lishni menga tayinlasa-da, uning va-johatidan qo'rqib yaqinlasha olmayman. Tashlagan ovqatlarim ham goho beriroqda qolaverardi. Kunlar o'tgan sayin Oqtoy kam vovullaydigan, behuda harakat qilmaydigan bo'lib qoldi. Dadam buni ko'rib:

– Ja sillasi qurib qolibdi-ku, bechoraning, – deya uni qo'yib yubordi.

Qiziq, u yana avvalgidek yuvosh bo'lib qolibdi. Nima bersam darrov yeb, yana bormi, degandek cho'nqayib, ko'zlarini mo'ltiliratib turaveradi. Oqtoyni ergashtirib sayrga chiqaman. U juda sevinadi. Yugura-yugura yana yonimga kelib erkalanadi.



## KONFET

Avtobusning oldingi o'rinalarida bir-birlariga qarab ikkita bolali xotin o'tiribdi. Bolalarning ikkovi ham tenqur – ikki yoshlardagi o'g'lolar. Faqat ulardan biri tinmay g'ingshir, xarxasha qilib, o'zini u yoqdanbu yoqqa tashlar, ikkinchisi esa ko'zlarini katta-katta ochib, xuddi o'zi hech ham bunday qilmaydigandek, hayron bo'lib tomosha qilardi.

Avtobus to'xtab, navbatdagi bekatdan oppoq soqoli ko'kragiga tushgan chol chiqib, yig'layotgan bolaning onasi yoniga o'tirdi. Bola tinmay yig'lardi. Chol uni ovutmoqchi bo'lib, labini cho'chchaytirgancha „lo'-lo'lab“ ko'rdi, bo'lmadi. Keyin cholning esiga bir narsa tushib qolib, choponi tagidagi kamzulning cho'ntagini uzoq kovladi, chiroyli o'ramdagagi konfet topib bolaga uzatdi. Go'dak konfetgami yoki cholning soqoliga mahliyo bo'libmi, yig'idan to'xtadi.

– Nevaramga olgandim, to'ydan. Senga nasib qilgan ekan, bo'taloq.

Endi hamma xotirjam nafas olgandi, boyagi hayron bo'lib jim tomosha qilib kelayotgan bola janjal qila



boshladi. U ham konfetlik bo'lmochchi edi. Bolaning soddagina nayrangini tushunib avtobusdagilar kulib qo'yishdi. Chol yana cho'ntak kovlashga tushib ketdi. Ancha kovladi. Lekin hech narsa topolmadidi. Bola esa qarab-qarab qo'yib, yig'lashini avjga chiqarardi.

Chol konfeti yo'qligidan shunaqangi xafa bo'ldiki, bag'ridan konfet qilib berishga tayyorligi ko'rinish turardi. „Obbo“, „obbo“ deb o'zini qo'yishga joy topolmasdi.

Odamning loyi shunaqa qorilgan. Hamma yig'-lovchilarni ovutmoqchi bo'ladi-yu, ilojini qilolmaydi – konfeti bo'lmaydi.





## ONA QO'Y BILAN KO'K QO'ZICHOQ

May kunlarining birida suruvni boqqani amakimga hamroh bo'ldim. Amakim odatdagiday miltig'ini yelkasiga osib oldi.

— Sovliqlarni boqish oson emas. Doim ularni qo'riqlab, ko'z-quloq bo'lib turish kerak, — deya yo'l-yo'lakay tushuntirib borardi amakim.

Men, xuddi katta cho'ponlarday, amakimning gaplariga bosh irg'ab qo'yardim. Onasidan orqada qolib, suruv ichida adashib ketgan qo'zichoqlar tinmay ma'rashar, ona qo'ylar ham bolalarini jonsarak izlashib, olamga jar solishardi.

Men shal pang quloqlarini selkitib chopqillab yurgan bitta ko'k qo'zichoqni ushlab oldim. Qarasam, tunov kuni o'zim qulog'iga halqa urgan qo'zichoq ekan. Uning peshanasida tangadek qashqasi bor. Qo'zichoq quchog'imda nuql tipirchilayverdi. Keyin qo'yib yubordim.

Suruv nimasi bilandir qushlar bozorini eslatadi. Qo'y-qo'zining ovozi ba'zan qulog'ingizda o'rnashib



qolib, tog‘-u toshning qayeriga borsangiz ham hamon eshitilyotganday bo‘laveradi.

Amakim qo‘ylar o‘tblab yurgan adirning adoq tomoniga ketayotib:

– Qo‘ylar yoyilib ketmasin! – deya tayinladi. – Hushyor bo‘l...

Shu payt kutilmaganda qo‘ylar qattiq hurkib to‘z-g‘ib ketdi, katta burgut qanotlarini yozib, osmonga ko‘tarildi. Amakim o‘q uzdi. Qo‘zichoqlarning dilni o‘rtaguvchi nolavor ma’rashi avjiga chiqib ketdi.

O‘q ovozini eshitgan burgut changalidagi qo‘zichoqni tashlab, qanotlarini yozib, uzoqlarga uchib ketdi.

Men to‘zg‘ib ketgan qo‘ylarni qaytarib kelgunimcha amakim burgut changalidan qutulib qolgan ko‘k qo‘zichoqni ko‘tarib oldi.

– Burgut ham ayyor bo‘ladi-da, toshlar orasida poylab yotgan ekan, – dedi amakim.

O‘tblab yurgan suruvni kechga yaqin qo‘tonga haydadik.

Tog‘larga, past-baland adirlarga oqshom cho‘kib, salqin shabada esmoqda. Cho‘qqilar alvon rangda. Go‘yo tog‘lar ortidan gulxan yonayotganga o‘xshaydi.





Soylikdan o'tishimiz bilan qo'ylar hurkib, yana to'zg'ib ketdi. Amakim shartta yelkasidan miltiqni olib:

– Hushyor bo'l, bo'riga o'xshaydi! – dedi.

Beixtiyor etim jimirlab ketdi.

Amakim chaqqonlik bilan oldinga yugurdi va birdan to'xtab, kunbotar tomonga qarab o'q uzdi. Miltiq tovushi uzoq-uzoqlardan aks sado berib, oqshom sukunatini to'zg'itib yubordi.

Men suruvni to'plash bilan ovora edim. Bir payt qarasam, ko'k qo'zichoqning onasi jon talvasasida tipirchilab yotibdi.

– Amaki, hov amaki, bu yoqqa keling, – dedim hovliqib.

Amakim qo'yning ahvolini ko'rib, shartta qinidan pichog'ini chiqardi-yu, jonivorning bo'g'ziga tortib yubordi.

– To'dadan ayrilib qolgan bo'lsa kerak, – dedi amakim.

Biz qo'tonga ona qo'ysiz qaytdik.

Shu kuni negadir dunyo ko'zimga qop-qorong'i tuyulib ketdi. To'dadan ayrilib chiqib, nobud bo'lган ona qo'yga rahmim keldi.



## TOSHBAQALAR POYGASI

Dunyodagi eng tanbal jonivor toshbaqa bo'lsa kerak. U shunchalar sekin yuradiki, ko'rib yuragingiz siqilib ketadi. Uning ildam yurishiga tosh kosasi xalaqit bersa kerak, deb o'ylayman. Lekin tosh kosasining bitta juda muhim foydali tomoni bor: har qanday balo-qazodan uning boshini asrab qoladi-da!..

Boymurod bilan cho'ponlik qilgan kunimiz oqshom mahali bir xurjun toshbaqa ushlab keldik.

– Muncha toshbaqalarni nima qilasizlar? – deb so'radi amakim.


– Poyga o'ynatamiz, – dedim men. – Qani, qanday bo'larkin?

– E, qo'ysang-chi, toshbaqalar bilan poyga o'ynab bo'larmidi?! – deya e'tiroz bildirdi Boymurod.

– Iya, nega olib keldik bo'lmasa bularni? – dedim unga. – Kel, tavakkal qilib ko'raylik-chi... Yettita ekan. Bittasi sudya bo'la qolsin.

Ikkalamiz toshbaqalarni uchtadan bo'lib olib, yalanglikka chiqdik.

– Masofani necha metr belgilaymiz? – deb so'radi Boymurod.



– Hozircha besh yetadi, – dedim men. – G'olib toshbaqaga qanday mukofot beramiz?

– Ozodlik! – dedi Boymurod.

Toshbaqalarimiz ajralib tursin uchun o'zimnikilarning kosasiga ko'mir surtib chiqdim. So'ng chaqmoq tosh bilan chiziq tortib „Start“ bilan „Finish“ni belgiladik. Keyin yugurishga buyruq berib, qattiq hushtak chaldim.

Poyga boshlandi. Afsuski, toshbaqalar to'g'riga emas, oltiasi olti tomonga qarab sekin yurib ketdi. Yana ularni to'plab „Start“ga qo'ydik. Bu hol bir necha bor takrorlangandan ikkalamizning ham jig'ibiyronimiz chiqdi: . bularning birortasi ham ozod bo'lishni istamaydi-ya!

– Yaxshisi, bu lapashanglarni boplab ta'zirini beraylik, – dedi Boymurod jahl bilan.

– Jonivorlarda nima ayb? Ularni poygaga majbur qilayotgan o'zimiz-ku?!

Ammo poyga ko'ngildagidek bo'lmadi. Axiri toshbaqalarni to'plab, uzun oxurga solib qo'ydik.

Kechqurun, azbaroyi charchaganimizdan, dong qotib qolibmiz.

...Bir payt toshbaqalar o'z-o'zidan chiziqqa kelib qatorlasha boshladilar. Biz beixtiyor hayratlanib,



bir zum angrayib qoldik. So'ng toshbaqalar tizilib bo'lganini ko'rib, baravariga qarsak chaldik: poyga boshlandi.

Toshbaqalar oldin ildam yura boshladilar. So'ng birdan tezlashib, yela ketishdi. Biz qaysi toshbaqa qay birimizni ekanligini ajrata olmay baqirishga tushdik.

- Meniki birinchi ketyapti.
- Yo'q, meniki!
- Ana, ustiga ko'mir surtilgan oldinda-ku?

Birdan qo'l siltab, uyg'onib ketdim. Xayriyat, tu-shim ekan.

Tong ancha yorishibdi. Irg'ib turib oxurdagi toshbaqalar holidan xabar olgani bordim. Ne ko'z bilan ko'rayki, allaqachon toshbalarni kimdir ozodlikka chi-qarib yuboribdi.

Ana shunaqa: poygalar orasida eng qizig'i, eng zo'ri – toshbaqalar poygasi. Biroq uni faqat tushda ko'rish mumkin... ekan.



## DEVORDAGI YOZUV

Katta tanaffusga qo'ng'iroq chalinishi bilan ostonada sinf rahbari Ermat aka paydo bo'ldi.

– Bolalar, to'xtanglar, – deb o'quvchilarga murojaat qildi u. Hamma joy-joyiga o'tirdi. – Bugun qanaqa kun?

– Sakkinchi may.  
– Ertaga Xotira va qadrlash kuni, a? Xo'sh, qishlog'imizning Hakan mahallasida Huri xola degan kampir yashaydi. Yuqori sinf o'quvchilari kampirni otaliqqa olishgan. Sizlar ham bir borib bayram bilan tabriklab qo'ysanglar yomon bo'lmaydi. Yana bir-ikki yildan keyin otaliq navbatli sizlarga kelib qoladi.

Barcha baravariga „Men boraman“ deb qo'il ko'tardi. Sinf rahbari Erkin, Mutual va Sanjarni tanladi.

Erkin Mutual bilan Sanjarning his-hayajonini bilmadi-yu, ammo o'zini behalovat sezal boshladidi. „Xolaning hech kimi yo'q ekan-da, – dedi Erkin ichida kampirga achinib. – Bechora. Farzandlariga nima bo'lgan ekan“. Dars tugaganidan keyin uchovi kampirnikiga jo'nashdi.



Kampir bolalarni ko'rib sevinib ketdi. Erkin o'zini, sheriklarini tanishtirdi. Kelayotgan bayram bilan tabriklashdi. Keyin Erkin:

– Biz sizga yordam bergani keldik, ena, nima ish qilaylik? – dedi Huri xolaning qovun po'stlog'idek ajin to'r tashlagan yoqimli chehrasiga, biroz yoshlangan qisiq ko'zlariga boqib.

– Rahmat, bolalarim! Hech narsadan kamchiligidim yo'q. Mana, siz toychoqlarim kelibsizlar, boshim os-monga yetdi, bolalarim. Barakalla, ilohim, umrlaring uzoq bo'lisin.

– Xola, o'g'lingiz yo'qmi? – dedi Sanjar dab-durstdan. Erkin „Hey, kallang qursin“ degandek uning biqiniga turtdi, oraga jimlik cho'kdi.

Kampirning yuzidagi ajin yanada ko'payib ket-gandek tuyuldi Erkinga. Kampir bolalarga bir pas ma'yus qarab turdi-da:

– O'g'lim bor edi, bolam, – dedi ovozi titrab, – suqsurdek o'g'lim bor edi. Umri qisqa ekan... – Keyin u keng yengining uchi bilan ko'zini artib o'g'li haqida hikoyasini boshladi.

...Anvarjon qishlog'imizning ilg'or traktorchilaridan edi. Kunlarning birida daladan qaytayotib nogahon katta ko'chada bolalarning dod-voyini eshitib qoladi.

Chopib borib, shamolda uzilib tushgan elektr simi qurshovida qolgan bolalarni ko'radi. U darhol bolalarni qutqarishga kirishadi. Kichkintoylarni tilisiz va dilsiz, ko'rinas dushman girdobidan xalos qiladi-da, o'zi...

Huri xola dastlab hikoyani shoshilmay, og'ir-bosiqlik bilan boshlagan edi. Farzandining aziz nomini qayta-qayta takrorlash bilan ko'ngliga taskin berayotgandi. Lekin fojiaga kelganda entikib, gapirolmay qoldi. Nursizlana boshlagan ko'zlaridan marjon-marjon yosh oqa boshladи. Bolalar sehrlanib qolgandek, miq etishmas, Ular qilt-qilt yutinib, ko'zlarini baqraytirib Huri xolaga tikilishdi.

Erkin ko'chaga boshi karaxt chiqdi. Sheriklariga qaradi. Gapdon o'rtoqlari ham jim edi. Ehtimol, ular ham kampirni o'ylashayotgandir. Lekin Erkining xayoli boshqa bir o'y bilan band edi. Bu o'y uning xayoliga yashin tezligida keldi-yu, mustahkam o'rnatshib qoldi. U Huri xoladek ajoyib kampir borligini, uning Anvarjon degan o'g'lining taqdirini butun olamga yoygisi, aytgisi kelardi. Anvarjonning ismi odamlarning dilidan ko'tarilmasligini istardi. Xayoliga kelgan fikrni o'rtoqlariga aytdi:

– Bir ish qilmaymizmi?



– Qanday?  
– Anvarjon aka katta qahramonlik qilibdi... – Erkin birdan jimib qoldi. Anchadan keyin: – Mayli, keyin aytarman, – dedi.

Mutal bilan Sanjar yelka qisishdi.

Oradan kunlar o'tdi. Mutal bilan Sanjar Erkining „keyin“ini kuta boshlashdi. Nihoyat, Erkin ularni uyga taklif etdi-da, bir varaq qog'ozdek oq rux tunukani sinfdoshlarining qo'liga berdi.

Bolalar dastlab hayron bo'lishdi. Uni qo'lga olib hamma narsaga tushunishdi. Tushunishdi-yu, xursand bo'lib ketishdi. Erkin juda chiroyli yozar edi. Bu safar ham husnixatini chunonam kelishtirib, tunukaga hafsalala bilan har bir harfni dona-dona qilib quyidagilarni yozibdi: „Bu uyda bolalarni halokatdan saqlab qolgan Anvarjon Ahmedov yashagan“.

Shu kuni bolalar oq rux tunukani Huri xolaning ko'cha devoriga mixlab kelishdi. Endi ko'chadan o'tgan-ketganlar Huri xolaning uyi oldiga kelganda to'xtaydi. Bir sidra yozuvga qarashadi. Nimalarnidir yodga tushirib, bosh qimirlatib, yana yo'lda davom etishadi.

## MUNDARIJA

So'zboshi .....	3
Uquv qut beradi, bilim – sharaf-shon.....	5
Bolari va pashsha .....	11
Saxiylik .....	14
Ochko'zlik .....	15
Hulkar .....	16
Diloro .....	19
Shoshqaloq.....	21
Qizg'anchiq.....	23
Chavgon .....	28
O'kinch.....	30
Oq tugma .....	34
Quyon .....	35
Dog' .....	38
Hammangizga rahmat .....	39
Mehribon.....	40
Xo'p bo'ladi .....	41
Shirin gilos .....	43
Tashvish .....	45

Gul.....	47
Tuya.....	48
Yumronqoziqning baxt haqidagi hikoyasi .....	50
Kim aybdor?.....	52
Buxoroni qachon ko‘ramiz?.....	55
Qalpoqcha .....	59
Bitik.....	61
Oq buloq .....	62
Uzum .....	64
Dumbul polvon.....	66
Gudok.....	70
Ona biladi.....	71
Qulog‘i topildi .....	72
Kapalak debman.....	73
Ukamning tili .....	74
Uzun qo‘l.....	76
Kechagi gap.....	78
O‘rgimchak .....	80
To‘ng‘ich o‘g‘il .....	82
Uchar yong‘oqlar.....	85
Rassom qiz.....	89
O‘g‘ri mushukcha .....	92
Sovg‘a.....	96

Ko'chat.....	99
Yomg'irda .....	102
Alla.....	105
Ona.....	109
To'rtko'z .....	111
Oyi, qarang .....	115
Begunoh qushcha.....	117
Otlar.....	120
Egizaklar.....	121
Tabassum.....	124
Oqtoy .....	125
Konfet .....	127
Ona qo'y bilan ko'k qo'zichoq.....	129
Toshbaqalar poygasi .....	133
Devordagi yozuv .....	137

25070

83.8(50')  
X 98

Xo'jaahmedov, S.

Do'stim mening – kitobim [Matn]: 3-kitob/

S.Xo'jaahmedov.–Toshkent: „Ensiklopediya“ nashriyoti  
MCHJ, 2022.–144 b.

ISBN 9978-9943-07-757-7

UO'K: 821.512.133-93

KBK: 83.8(50')

Tuzuvchi:

Sunnat XO'JAAHMEDOV

Rassom:

Shohrux TOSHTURDIYEV

## DO'STIM MENING – KTOBIM

3

(Kichik mакtab yoshidagi bolalar uchun hikoyalar)

„Ensiklopediya“ nashriyoti  
Toshkent–2022

Muharrir Sunnat Xo'jaahmedov  
Badiiy muharrirlar: Shohrux Toshturdiyev,  
Shahnoza Sobirova  
Kompyuterda sahifalovchi Shahnoza Sobirova

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 20.09.2022.  
Bichimi 70×90<sup>1/16</sup>. Kegli 10 shponli. AG\_Helvetica garn.  
Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozli. Sharqli b.t. 9,0.  
Hisob-nashriyot t. 9,0. Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 725-22.

Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.

„Credo Print“ MChJ kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN  
**HIKOYALAR**



ENSIKLOPEDIYA  
NASHRIYOTI

Toshkent shahar,  
Chilonzor tumani,  
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.

6+

ISBN 978-9943-07-757-7



9 789943 077577